



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH VA BANDLIK VAZIRLIGI
FARG'ONA VILOYATI KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH VA BANDLIK
BOSH BOSHQARMASI
BUYRUQ

2024-yil "7" may

A-138-son

Farg'ona shahri

O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining 2024-yil 5-apreldagi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tizimida monopoliyaga qarshi komplaens tizimini joriy etish to'g'risidagi 53-sonli buyrug'i to'g'risida

O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 3-iyuldagagi "Raqobat to'g'risida"gi O'RQ-850-son Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-iyundagi "Raqobat muhitini yanada rivojlantirish va iqtisodiyotdagi davlat ishtirokini qisqartirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-6019-son Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 2-martdagagi "Monopoliyaga qarshi komplaens tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 114-son qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining 2024-yil 5-apreldagi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tizimida monopoliyaga qarshi komplaens tizimini joriy etish to'g'risidagi 53-sonli buyrug'i ijrosini ta'minlash maqsadida,

B U Y U R A M A N :

1. O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 3-iyuldagagi "Raqobat to'g'risida"gi O'RQ-850-son Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-iyundagi "Raqobat muhitini yanada rivojlantirish va iqtisodiyotdagi davlat ishtirokini qisqartirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-6019-son Farmoni hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 2-martdagagi "Monopoliyaga qarshi komplaens tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 114-son qarori, O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining 2024-yil 5-apreldagi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tizimida monopoliyaga qarshi komplaens tizimini joriy etish to'g'risida 53-sonli buyrug'i ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Belgilab qo'yilsinki:

a) monopoliyaga qarshi komplaens tizimi, faoliyatning raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlariga muvofiqligini ta‘minlash, huquqbuzarliklar xavfini aniqlash va ularning oldini olishga qaratilgan ichki tashkiliy chora-tadbirlar va taomillarni o‘z ichiga oladi.

b) quyidagilar monopoliyaga qarshi komplaens tizimining asosiy vazifalari etib belgilansin:

raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlarining ehtimoliy buzilish xavflarini aniqlash, ularni baholash va boshqarib borish;

bosh boshqarma va uning tasarrufidagi tashkilotlar faoliyatini raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablariga muvofiqlashtirish va monitoring qilish;

bosh boshqarma va uning tasarrufidagi tashkilotlar faoliyatida raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablarni buzilishi hamda rahbariyat tomonidan o‘z vazifalarini bajarish jarayonida raqobatga zid xatti-harakatlar amalga oshirilishining oldini olish;

monopoliyaga qarshi komplaens tizimining ishslash samaradorligini baholash mexanizmini joriy etish;

raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablari buzilishining oldini olish va muntazam ravishda ushbu yo‘nalish bo‘yicha xodimlarning malakasini oshirish maqsadida o‘qitish, raqobat qonunchiliga doir amaliy ishlarni rivojlantirish.

3. Monopoliyaga qarshi komplaens tizimining vazifalari va funksiyalari Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha bosh mutaxassis (X.Abdullayev)ga yuklatilsin.

4. Vazirlikning 2024-yil 5-apreldagi 53-sonli buyrug‘iga asosan:

korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi to‘g‘risidagi nizom 1-ilovaga;

monopoliyaga qarshi komplaens tizimini joriy etish va uning ishslash tartibi to‘g‘risida nizom 2-ilovaga;

korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi rahbar va xodimlarining lavozim yo‘riqnomalari 3-ilovaga;

Vazirlikning 2023-yil 26-maydagi 91-son buyrug‘i 1-ilovasi va 2-ilovasiga o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritish 4-ilovaga;

Vazirlik tizimida raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablari buzilishi xavflarini kamaytirish bo‘yicha 2024-yilga mo‘ljallangan “Yo‘l xaritasi” 5-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

5. Bosh boshqarma, tuman (shahar) Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limlari hamda tasarrufiy tashkilotlar ushbu tasdiqlangan hujjatlar asosida ishlarni tashkil etish choralarini ko‘rsin.

6. Bosh boshqarma tizimida raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablari buzilishi xavflarini kamaytirish bo‘yicha 2024-yilga mo‘ljallangan “Yo‘l xaritasi” ilovaga muvofiq tasdiqlansin .

7. Mazkur buyruq ijro nazorati bosh boshqarma boshlig‘ining birinchi o‘rinbosari **B.Akbarov** zimmasiga yuklatilsin.

Bosh boshqarma boshlig‘i



M.Saydullayev

Farg‘ona viloyati Kambag‘allikni qisqartirish va
bandlik bosh boshqarmasining
2024- yil “7 ” may A-138- son buyrug‘iga ilova

**Farg‘ona viloyati Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasida raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari
talablarining buzilish xavflarini kamaytirish bo‘yicha 2024-yilga mo‘ljallangan
“YO‘L XARITASI”**

T/ R	Amalga oshiriladigan chora-tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi va bosqichlari	Muddat	Mas’ul ijrochilar
1	Raqobat qonunchiliga kiritilayotgan o‘zgarishlarni o‘rganib borish, shuningdek, qonunchilikka kiritilgan o‘zgartirishlardan kelib chiqib, idoraviy hujjatlarni muvofiqlashtirish yuzasidan rahbariyatga takliflar kiritish.	<p>Tizimli ravishda raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari kiritilayotgan o‘zgarishlarni o‘rganib borish.</p> <p>Bosh boshqarmada raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablarini buzilishi mumkin bo‘lgan sohalarni tahlil qilish</p>	Har chorakda	Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha bosh mutaxassis (X.Abdullayev), Bosh yuriskonsult (A.Abdurahmonov)
2	Xodimlari orasida “Monopoliyaga qarshi qonunchilik va unga amal qilish” mavzusida seminarlar va muloqotlar o‘tkazish.	<p>Bosh boshqarma, tuamn (shahar) bo‘limlari xodimlari orasida raqobat qonunchiligi va uning buzilish ehtimollari hamda unga kiritilayotgan o‘zgarishlar, yangiliklar to‘g‘risida seminar-trening mashg‘ulotlarini o‘tkazish.</p> <p>Faoliyat davomida xodimlarga muntazam ravishda raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablariga amal qilish bilan bog‘liq masalalar bo‘yicha maslahatlar berib borish.</p>	Har chorakda	Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha bosh mutaxassis (X.Abdullayev), Bosh yuriskonsult (A.Abdurahmonov)
3	Raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish ehtimolligini aniqlash va baholash.	<p>Oxirgi 3-yil davomida monopoliyaga qarshi organ tomonidan o‘tkazilgan tekshirishlar, aniqlangan qoidabuzarliklar, berilgan taqdimnomalarni o‘rganish.</p> <p>Bosh boshqarma o‘z ustun mavqeini suiste’mol qilishi va (yoki) raqobatni cheklashi mumkin bo‘lgan holatlarni o‘rganish.</p>	Har chorakda	Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha bosh mutaxassis (X.Abdullayev), Bosh yuriskonsult (A.Abdurahmonov)

		O'tkazilgan o'rganishlar va tahlillar natijasida qonunchilik buzilishi mumkin bo'lган sohalarni xavflar tasnifi asosida taqsimlash hamda bu yuzasidan monopoliyaga qarshi organga axborot kiritish.		
4	Raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish xavflarini aniqlash va ularning oldini olish	<p>Faoliyatga tegishli materiallarni tahlil qilish (<i>shu jumladan, raqobatni va (yoki) iste'molchilarining huquq va manfaatlarini cheklaydigan normalarni aniqlashga qaratilgan ichki hujjatlarni xatlovdan o'tkazish</i>), aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etishga yo'naltirilgan choralarini ishlab chiqish.</p> <p>Bosh boshqarma tomonidan chiqariladigan hujjatlar (<i>buyruq, yig'ilish bayonlari va boshqalar</i>) loyihamini doimiy o'rganib borish. Bunda raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilishini keltirib chiqarishi mumkin bo'lган normalar aniqlangan taqdirda, bu haqda rahbarni xabardor qilish.</p> <p>Raqobat cheklarini keltirib chiqarishi mumkin bo'lган omillarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar ishlab chiqish.</p> <p>Bosh boshqarma tomonidan tanlov (tender) va birja savdolari o'tkazilishida raqobat to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan belgilangan tartibda nazoratni amalga oshirish.</p> <p>Yuridik shaxslar o'rtasida tuziladigan shartnomalarni o'rganib borish. Bunda:</p> <ul style="list-style-type: none"> - ayrim xo'jalik yurituvchi subyektlarga ularni tovar yoki moliya bozorida faoliyat ko'rsatayotgan boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlarga nisbatan afzal holatga qo'yadigan imtiyozlar, preferensiyalar va yengilliklarni asossiz ravishda berish holatlarining; 	Har chorakda	Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha bosh mutaxassis (X.Abdullayev), Bosh yuriskonsult (A.Abdurahmonov)

		<p>- ayrim xo‘jalik yurituvchi subyektlarning faoliyati uchun boshqa kamshituvchi yoki imtiyozli shartlar (sharoitlar) belgilash holatlarining - til biriktirish va kartel kelishuvlar sodir etilishining oldini olish.</p> <p>Monopol korxona tomonidan sotiladigan, ular bo‘yicha ushbu subyektning ustun mavqeい e’tirof etilgan tovarlarga (ishlarga, xizmatlarga) monopol yuqori va monopol past narxlar o‘rnatalishiga olib keladigan yoki olib kelishi mumkin bo‘lgan harakatlarni o‘rganish.</p>		
6	Monopoliyaga qarshi komplaens tizimi faoliyati yuzasidan yillik hisobotni tayyorlash.	<p>Monopoliyaga qarshi komplaens bo‘yicha hisobot tayyorlash:</p> <p>raqobat to‘g‘risidagi qonun buzilishi xavfini baholash natijalari to‘g‘risida;</p> <p>raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari buzilishi xavfini kamaytirish yuzasidan ko‘rilgan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi to‘g‘risida;</p> <p>monopoliyaga qarshikomplaensning asosiy ko‘rsatkichlariga erishish to‘g‘risida;</p> <p>Monopoliyaga qarshi komplaens to‘g‘risidagi hisobotni rasmiy veb-saytga joylashtirish va monopoliyaga qarshi organga yuborish.</p>	Har yili 15-dekabrga qadar	Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha bosh mutaxassis (X.Abdullayev), Bosh yuriskonsult (A.Abdurahmonov)
7	Monopoliyaga qarshi kurashish doimiy organi bilan axborot almashinuvini amalga oshirish	Monopoliyaga qarshi kurashish organi bilan elektron pochta, telegram va rasmiy veb-sayt orqali yangi loyiha bo‘yicha axborot almashish.	Har yili 15-dekabrga qadar	Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha bosh mutaxassis (X.Abdullayev), Axborot xizmati



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH VA BANDLIK VAZIRLIGI
B U Y R U Q

2024-yil “5” aprel

53-son

Toshkent shahri

**Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik
vazirligi tizimida monopoliyaga qarshi
komplaens tizimini joriy etish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 3-iyuldaggi “Raqobat to‘g‘risida”gi O‘RQ-850-son Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-iyundagi “Raqobat muhitini yanada rivojlantirish va iqtisodiyotdagi davlat ishtirokini qisqartirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-6019-son Farmoni hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 2-martdagagi “Monopoliyaga qarshi komplaens tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 114-son qarori ijrosini ta’minlash maqsadida,

B U Y U R A M A N :

1. O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 3-iyuldaggi “Raqobat to‘g‘risida”gi O‘RQ-850-son Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-iyundagi “Raqobat muhitini yanada rivojlantirish va iqtisodiyotdagi davlat ishtirokini qisqartirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-6019-son Farmoni hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 2-martdagagi “Monopoliyaga qarshi komplaens tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 114-son qarori ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Belgilab qo‘yilsinki:

a) monopoliyaga qarshi komplaens tizimi, faoliyatning raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlariga muvofiqligini ta’minlash, huquqbazarliklar xavfini aniqlash va ularning oldini olishga qaratilgan ichki tashkiliy chora-tadbirlar va taomillarni o‘z ichiga oladi.

b) quyidagilar monopoliyaga qarshi komplaens tizimining asosiy vazifalari etib belgilansin:

raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlarining ehtimoliy buzilish xavflarini aniqlash, ularni baholash va boshqarib borish;

Vazirlik faoliyatini raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablariga muvofiqlashtirish va monitoring qilish;

Vazirlik faoliyatida raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablarini buzilishi hamda rahbariyat tomonidan o‘z vazifalarini bajarish jarayonida raqobatga zid xatti-harakatlar amalga oshirilishining oldini olish;

monopoliyaga qarshi komplaens tizimining ishlash samaradorligini baholash mexanizmini joriy etish;

raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablari buzilishining oldini olish va muntazam ravishda ushbu yo‘nalish bo‘yicha xodimlarning malakasini oshirish maqsadida o‘qitish, raqobat qonunchiligiga doir amaliy ishlarni rivojlantirish.

3. Monopoliyaga qarshi komplaens tizimining vazifalari va funksiyalari Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limiga yuklatilsin.

4. Quyidagilar:

korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi to‘g‘risidagi nizom 1-ilovaga;

monopoliyaga qarshi komplaens tizimini joriy etish va uning ishlash tartibi to‘g‘risida nizom 2-ilovaga;

korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi rahbar va xodimlarining lavozim yo‘riqnomalari 3-ilovaga;

Vazirlikning 2023-yil 26-maydagi 91-sod buyrug‘i 1-ilovasi va 2-ilovasiga o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritish 4-ilovaga;

Vazirlik tizimida raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablari buzilishi xavflarini kamaytirish bo‘yicha 2024-yilga mo‘ljallangan “Yo‘l xaritasi” 5-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. Vazirlik markaziy apparati, hududiy va tasarrufiy tashkilotlar ushbu tasdiqlangan hujjatlar asosida ishlarni tashkil etish choralarini ko‘rsin.

6. Mazkur buyruq ijrosining nazoratini o‘z zimmamda qoldiraman.

Vazir



B. Musaev

O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni
qisqartirish va bandlik vazirining
2024- yil “5 ” aprel 53- son buyrug‘iga
1-ilova

**Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligining
Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi to‘g‘risida**

NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligining Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi (bundan buyon matnda Vazirlik deb yuritiladi) markaziy apparatining tarkibiy tuzilmasi bo‘lib, bevosita O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vaziriga (bundan buyon matnda Vazir deb yuritiladi) bo‘ysunadi.

2. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, boshqa normativ-huquqiy hujjatlar, O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi to‘g‘risidagi nizom, Vazirlik Hay’atining qarorlari, vazir buyruqlari, ko‘rsatmalari, shuningdek mazkur Nizomga amal qiladi.

3. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi hududiy bosh boshqarma, bo‘lim va tasarrufiy tashkilotlar (bundan buyon matnda tizim tashkilotlari deb yuritiladi) faoliyatiga korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini joriy qilish va uni nazorat qilish bo‘yicha uslubiy rahbarlik qiladi.

2-bob. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limining vazifalari va funksiyalari.

4. Quyidagilar Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limining asosiy vazifalari hisoblanadi:

tizim tashkilotlarda korrupsiyaga oid huquqbazarliklarni profilaktika qilish va ularga qarshi kurashish;

tizim tashkilotlarda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini samarali ishlashini ta’minlash va nazorat qilish;

korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiruvchi va ishtirok etuvchi davlat organlari va tashkilotlari bilan hamkorlikni olib borish.

5. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi o‘ziga yuklatilgan vazifalarga muvofiq quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

1) korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha tizim tashkilotlarining faoliyatini takomillashtirish sohasida:

Vazirlik tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishga qaratilgan ichki idoraviy hujjatlar loyihibalarini ishlab chiqadi;

Vazirlikning korrupsiyaga qarshi kurashish chora-tadbirlarini ishlab chiqadi va tasdiqlash uchun vazirga kiritadi;

Vazirlikning faoliyatiga oid normativ-huquqiy hujjatlar va ichki idoraviy hujjatlarda aniqlangan korrupsiyaviy normalarni bartaraf qilish bo‘yicha takliflar ishlab chiqadi;

Tizim tashkilotlari tomonidan ishlab chiqiladigan korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha chora-tadbirlar loyihibalarini Vazirlik tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati va O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga mosligi, maqbulligi va dolzarbliги nuqtai nazaridan baholaydi va xulosalar beradi;

2) tizim tashkilotlarida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni profilaktika qilish va ularga qarshi kurashish sohasida:

tizim tashkilotlarida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholaydi va ularning natijalari bo‘yicha aniqlangan xavf-xatarlarni kamaytirish yuzasidan chora-tadbirlar rejalarini ishlab chiqadi;

tizim tashkilotlari xodimlari tomonidan o‘xshash huquqbuzarliklar sodir etilishi ehtimolini baholash maqsadida davlat hokimiyatining boshqa organlarida korrupsiyaviy huquqbuzarliklar sodir etilishining holati va yo‘nalishlari haqida ma’lumot to‘playdi;

maxsus axborot aloqa kanallari orqali tizim tashkilotlari xodimlari tomonidan korrupsiyaviy xavf-xatarlar va huquqbuzarliklar haqida kelib tushadigan murojaatlarni tahlil qiladi va o‘rnatilgan tartibda choralar ko‘radi;

xizmat tekshiruvlari yakuni bo‘yicha berilgan ma’lumotnomalar va boshqa hujjatlarda korrupsiya faktlariga doir xizmat tekshiruvlari bo‘yicha ma’lumotlarning to‘g‘ri va to‘liq aks ettirib borilishini nazorat qiladi;

davlat xaridlarini amalga oshirishda manfaatlar to‘qnashuvini tahlil qilishda va kontragentlarning ishonchlilagini tekshirish jarayonida ishtirop etadi;

tizim tashkilotlari xodimlariga korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo‘yicha tushuntirish va tavsiyalar beradi;

korrupsiya faktlari haqida xabar berishga mo‘ljallangan maxsus axborot aloqa kanallarining ish natijalarini tahlil qiladi va xodimlarning korrupsiyaviy xavf-xatarlardan xabardorligini oshirish maqsadida tahliliy materiallarni manfaatdor shaxslarga yetkazadi;

tizim tashkilotlari faoliyatida korrupsiyaviy holatlarni va xavf-xatarlarni aniqlash maqsadida aholi va xodimlar orasida so‘rovlar o‘tkazadi;

korrupsiyaga qarshi kurashishga oid talab va normalarning buzilishi masalalari bo‘yicha intizomiy javobgarlikka tortilayotgan shaxslarga jazo choralarining mutanosibligi va yetarlilagini nazorat qiladi;

korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish maqsadida tizim tashkilotlarida korrupsiya faktlari yuzasidan o‘tkazilgan xizmat tekshiruvlari natijalari haqidagi ma’lumotlarni tahlil qiladi;

har chorakda yoki zaruratga ko‘ra tizim tashkilotlarida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar hamda ulardagи korrupsiyaviy holat haqida vazirga ma’lumot kiritib boradi;

3) tizim tashkilotlarda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining samarali ishlashini ta'minlash va nazorat qilish sohasida:

korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha davlat dasturlarida Vazirlikka yuklatilgan vazifalar ijrosini monitoring qiladi va nazoratini amalga oshiradi;

korrupsiyaga qarshi normalarga oid qismi bo'yicha tizim tashkilotlari xodimlarining malakasini oshirish bo'yicha o'quv rejalarini ishlab chiqishda ishtirok etadi;

Vazirlik tizimi xodimlari va fuqarolar o'rtasida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha targ'ibotlarda ishtirok etadi;

Vazirlik tizimidagi xodimlar tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati va tartiblariga, shuningdek, korrupsiyaviy xavf-xatarlarni kelib chiqishiga yo'l qo'yib beruvchi holatlar bilan bog'liq odob-axloq qoidalariga rioya qilinishini monitoring va nazorat qiladi;

manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish bo'yicha qabul qilingan qarorlarining xolisligi va maqbulligi nuqtai nazaridan Odob-axloq komissiyalari faoliyatini tekshiradi;

amalga oshirilgan monitoring, xizmat tekshiruvlari va nazorat tadbirlari natijalari bo'yicha korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqadi;

4) korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi va ishtirok etuvchi davlat organlari va tashkilotlari bilan hamkorlikni olib borish sohasida:

aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishga doir chora-tadbirlarning ishlab chiqilishida ishtirok etadi;

Vazirlik zimmasiga qonun hujatlari bilan yuklatilgan korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha vazifalarga muvofiq xorijiy davlatlarning vakolatli organlari so'rovlariiga javob berishda ishtirok etadi;

Zaruratga ko'ra tizim tashkilotlarining korrupsiyaga qarshi kurashish chora-tadbirlarini takomillashtirish yuzasidan xorijiy mutaxassislarni jalb qilish bo'yicha takliflar ishlab chiqadi;

korrupsiyaviy jinoyatlarni bartaraf qilish yoki tergov qilish bo'yicha tadbirlarni amalga oshirishda huquqni muhofaza qiluvchi vakolatli organlar vakillariga ko'mak beradi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi o'z vakolatlari doirasida vazir buyruqlari va topshiriqlariga asosan boshqa vazifa va funksiyalarni ham amalga oshirishi mumkin.

3-bob. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limining huquq va majburiyatları.

6. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi o'ziga yuklatilgan vazifalar va funksiyalarni bajarish uchun quyidagi huquqlarga ega:

Vazirlik tizimidagi xodimlardan ularning vakolatiga kiruvchi masalalar yuzasidan tahliliy materiallarni, xulosalar, birlamchi va boshqa tasdiqlovchi hujatlarni, statistik va boshqa ma'lumotlarni so'rash, talab qilish va olish;

xizmat majburiyatlarini bajarish doirasida Vazirlik tizimi xodimlaridan zarur yordam so'rash va olish;

tizim tashkilotlari rahbarlariga tizimidagi korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha ko'rib chiqilishi majburiy bo'lgan takliflar kiritish;

tekshiruvlar o'tkazish, jismoniy va yuridik shaxslarning korrupsiyaviy holatlar yuzasidan qilgan murojaatlarini o'rganishda barcha tizim va tasarrufiy tashkilotlarga moneliksiz kirib-chiqish, hujjatlarni talab qilish, Vazirlik tizimi xodimlaridan yozma tushuntirishlar olish, jinoyat alomatlari aniqlangan hollarda tegishli huquqni muhofaza qiluvchi organlarga xabar berish;

o'z faoliyati va vakolatlari doirasida tizim tashkilotlari rahbarlariga yozma tavsiyalar berish;

tizim tashkilotlarining egallab turgan lavozimidan qat'iy nazar barcha xodimlari o'z xizmat vazifalarini bajarmaganligi yoki yetarli darajada bajarmaganligi, Vazirlik tizimining korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati, xodimlarining odob-axloq qoidalarini buzganliklari, shuningdek, huquqqa xilof harakat yoki harakatsizlik, xizmat majburiyatlarini bajarishda yuklatilgan vakolatlardan bosh tortganligi fakti yuzasidan vazirga ma'lumotnomalar kiritish;

barcha tizim tashkilotlarining korrupsiyaga oid majlislarida kuzatuvchi sifatida ishtirok etish, uning natijalarini belgilangan reglament va Vazirlik tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi talablariga muvofiqligi haqida fikr bildirish;

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

7. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi xodimlari korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida komplaens-funksiyalarni amalga oshiruvchi xodimlarga mo'ljallangan o'qishlarda ta'lim olishlari lozim.

8. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi faoliyatining natijadorligi va samaradorligi hamda tizim tashkilotlari korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining samaradorligining maqsadli ko'rsatkichlariga erishish natijalariga asosan baholanadi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi faoliyatining maqsadli ko'rsatkichlari bo'lim boshlig'i tomonidan ishlab chiqiladi va vazir tomonidan tasdiqlanadi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi faoliyati samaradorligining maqsadli ko'rsatkichlariga erishish ustidan nazorat vazir tomonidan amalga oshiriladi.

4-bob. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi faoliyatini tashkil qilish.

9. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limiga vazir tomonidan tayinlanadigan bo'lim boshlig'i rahbarlik qiladi. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi faoliyati mustaqilligini ta'minlash maqsadida bo'lim boshlig'i o'z faoliyatida bevosa vazirga va bo'lim xodimlari bo'lim boshlig'iga bo'ysunadi.

10. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi Vazirlikka idoraviy mansub bo'linmalar rahbarlariga korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha amalga oshirilayotgan tadbirlar hamda ular faoliyatiga aloqadorlikda yuklatilgan vazifalarning amalga oshirilishi holati va natijalari to'g'risidagi ma'lumotlarni yetkazadi.

11. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi xodimlari o'ziga yuklatilgan vazifalarni vazir tomonidan tasdiqlanadigan ish taqsimotiga muvofiq amalga oshiradi.

12. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi xodimlari o‘z xizmat vazifalarini tarkibiy bo‘linmalari bilan ochiqlik, umumiyligi natijaga qaratilganlik, tavsiyalarning o‘z vaqtida va to‘liqligi tamoyillariga tayangan holda tarkibiy tuzilmalari bilan o‘zaro hamkorlikda amalga oshiradi.

13. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi xodimlari o‘z faoliyatini vazir tomonidan tasdiqlangan va kelishilgan lavozim yo‘riqnomalariga muvofiq olib boradilar.

14. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi xodimlari o‘z xizmat vazifalarini bajarmaganligi yoki yetarli darajada bajarmaganligi, Vazirlik tizimining korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati, xodimlarning odob-axloq qoidalarini buzganliklari, shuningdek, huquqqa xilof harakat yoki harakatsizlik, xizmat majburiyatlarini bajarishda yuklatilgan vakolatlardan bosh tortganlik uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda intizomiy yoki boshqa javobgarlikka tortiladilar.

5-bob. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi xodimlariga shaxsiy ustama belgilash.

15. Tizimda korrupsion holatlarni oldini olish hamda Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi xodimlarini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash maqsadida Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirining buyrug‘i asosida davlat byudjeti hamda qonunda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan har oylik maoshiga qo‘srimcha ustama to‘lovlarini amalga oshiriladi.

6-bob. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limining hisobdorligi.

16. Bo‘lim Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyati natijalari yuzasidan choraklik hisobotlar (tegishlicha 10-aprel, 10-iyul va 10-oktabrga qadar) hamda hisobot yilidan keyingi yilning 10-yanvariga qadar yillik hisobotlarni Vazirga taqdim etadi, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining “E-Anticor.uz” platformasiga joylashtirib boriladi.

7-bob. Yakunlovchi qoidalar

17. Ushbu Nizom talablarining buzilishida aybdor bo‘lgan shaxslar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradilar.

O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirining 2024- yil
“5 ” aprel 53- son buyrug‘iga 2-ilova

**O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik
vazirligida monopoliyaga qarshi komplaens tizimini joriy
etish va uning ishlash tartibi to‘g‘risida**

NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi (keyingi o‘rinlarda – Bandlik vazirligi) da monopoliyaga qarshi komplaens tizimini joriy etish, uning faoliyat yuritish va monitoring qilish tartibini belgilaydi.

2. Mazkur Nizomda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

monopoliyaga qarshi kurashish organi — O‘zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasi va uning hududiy boshqarmalari;

monopoliyaga qarshi komplaens — faoliyatning raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlariga muvofiqligini ta’minlash, huquqbazarliklar xavfini aniqlash va ularning oldini olishga qaratilgan ichki tashkiliy chora-tadbirlar va taomillar tizimi;

monopoliyaga qarshi komplaens to‘g‘risidagi hisobot — raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlariga amal qilinishini tashkil etish haqidagi axborotni o‘z ichiga oladigan hujjat;

vakolatli shaxs (bo‘linma) — vakolatli shaxs yoki bo‘lim (boshqarma) nomi yoziladi;

savdolar — tovar va xizmatlarni xarid qilish va sotish bilan bog‘liq bo‘lgan taomillar, shu jumladan, elektron savdo taomillari.

3. Quyidagilar monopoliyaga qarshi komplaens tizimining asosiy vazifalari hisoblanadi:

raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining ehtimoliy buzilish xavflarini aniqlash va baholash hamda uni boshqarish;

Bandlik vazirligida raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablariga muvofiqligini ta’minlash va monitoring qilish;

Bandlik vazirligining faoliyatida raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablari buzilishining hamda rahbarlar tomonidan o‘z vazifalarini bajarish jarayonida raqobatga zid xatti-harakatlar amalga oshirilishining oldini olish;

Bandlik vazirligida monopoliyaga qarshi komplaens tizimining ishlash samaradorligini baholash va ta’minlash;

Bandlik vazirligi xodimlarida raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablari buzilishining oldini olish va muntazam ravishda ushbu yo‘nalish bo‘yicha ularning

malakasini oshirish yuzasidan o‘qitish yo‘li bilan raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlariga doir fikrlarini rivojlantirish.

2-bob. Monopoliyaga qarshi komplaens tizimini tashkil etish.

4. Vakolatli shaxs (bo‘linma) quyidagilarni amalga oshiradi:
 raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablari buzilishini monitoring qilish;
 faoliyatga tegishli materiallarni tahlil qilish (shu jumladan, raqobatni va (yoki) iste’molchilarning huquq va manfaatlarini cheklaydigan normalarni aniqlashga qaratilgan ichki hujjatlarni xatlovdan o‘tkazish), aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etishga yo‘naltirilgan choralarni ishlab chiqish;
- raqobat cheklovlarini keltirib chiqarishi mumkin bo‘lgan omillarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish;
- monopoliyaga qarshi komplaens tizimining faoliyat yuritishi bilan bog‘liq masalalar bo‘yicha boshqa tuzilmaviy bo‘linmalar bilan o‘zaro aloqalarni muvofiqlashtirish;
- raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablari buzilish bilan bog‘liq ichki o‘rganish ishlarini tashkil etish;
- monopoliyaga qarshi kurashish organi bilan raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablari buzilishi bo‘yicha o‘zaro axborot almashish;
- raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish xavflarini kamaytirish maqsadida bir yilga mo‘ljallangan “Yo‘l xaritasi”ni ishlab chiqish va amalga oshirilishini ta’minlash;
- raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari o‘zgarishlarni monitoring qilish, shuningdek, idoraviy hujjatlarga tegishli o‘zgartirishlar kiritish yuzasidan takliflar kiritish;
- raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish xavflarini aniqlash, xavflar bilan bog‘liq holatlar hisobini yuritish va yuzaga kelish ehtimolini belgilash;
- Bandlik vazirligining faoliyatida raqobat cheklovlarini keltirib chiqarishi mumkin bo‘lgan manfaatlar to‘qnashuvini aniqlash, ularni bartaraf etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish;
- Bandlik vazirligi xodimlariga raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablariga amal qilish bilan bog‘liq masalalar bo‘yicha maslahatlar berish;
- monopoliyaga qarshi komplaens masalalari bo‘yicha muntazam ravishda treninglar o‘tkazish;
- Bandlik vazirligi tomonidan qabul qilinadigan hujjatlarning loyihamalarini o‘rganish va raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilishini keltirib chiqarishi mumkin bo‘lgan normalarni aniqlangan taqdirda, bu haqda rahbarni xabardor qilish;
- Bandlik vazirligining Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Toshkent shahar va hududiy bosh boshqarmlar hamda tasarrufiy tashkilotlarda monopoliyaga qarshi komplaens tizimining joriy etilishi va samarali faoliyat ko‘rsatishini tashkil etish;
- har yili birinchi fevralga qadar monopoliyaga qarshi komplaens haqidagi hisobotni rahbariyatga tasdiqlash uchun taqdim etish.

Vakolatli shaxs (bo‘linma) bevosita rahbarga bo‘ysunadi va hisobdor bo‘ladi.

3-bob. Raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilishini aniqlash.

5. Bandlik vazirligida raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish xavflarini aniqlash maqsadida vakolatli shaxs (bo‘linma) tomonidan quyidagilar amalga oshiriladi:

raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilishiga yoki bozorda raqobatni cheklashga olib keladigan normalar va qoidalarni aniqlash maqsadida normativ-huquqiy hujjatlarni o‘rganish;

joriy etiladigan yangi cheklovlardan ruxsat berish tartib-taomillarining yangi turlari, litsenziyalarni, shuningdek, ruxsat berish xususiyatiga ega hujjatlarni yoki litsenziyalarni olish uchun qo‘srimcha talablar yoki shartlarni hamda texnik tartibga solish talablarining joriy etilishini o‘rganish;

tender va birja savdolariga qo‘yiladigan monopoliyaga qarshi talablarga amal qilinishini tahlil qilish;

davlat xaridlarining raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablariga muvofiqligini o‘rganish;

aniqlangan raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablarini buzish holatlarini tahlil qilish;

raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlarini qo‘llash amaliyotini monitoring va tahlil qilish;

raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish xavflarini kamaytirish bo‘yicha ishlab chiqilgan va amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar samaradorligini muntazam ravishda baholash;

vujudga kelish ehtimoli bo‘lgan monopoliyaga qarshi xavflarni tahlil qilish va ularning ro‘yxatini komplaens-xavflar xaritasi ko‘rinishida tuzish;

raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish xavflarini kamaytirish bo‘yicha ishlab chiqilgan va amalga oshirilayotgan tadbirlarning samaradorligini muntazam ravishda baholash.

Bandlik vazirligining faoliyati xususiyatidan kelib chiqqan hamda rahbariyat bilan kelishilgan holda monopoliyaga qarshi komplaens tizimining samarali ishlashiga qaratilgan boshqa chora-tadbirlarni ham amalga oshirish.

6. Raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilishi bo‘yicha aniqlanadigan xavflar vakolatli shaxs (bo‘linma) tomonidan mazkur nizomga ilovaga muvofiq darajalar bo‘yicha taqsimlanadi.

7. Raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish xavflarini tahlil qilish, aniqlash va baholash to‘g‘risidagi axborot monopoliyaga qarshi komplaens haqidagi hisobotga kiritiladi.

4-bob. Monopoliyaga qarshi komplaens tizimining ishlash samaradorligini baholash

8. Bandlik vazirligida monopoliyaga qarshi komplaens tizimining ishlash samaradorligini baholash bo‘ycha asosiy ko‘rsatkichlarni hisoblash monopoliyaga qarshi kurashish organi tomonidan ishlab chiqilgan metodikaga asosan hisoblab boriladi.

9. Vakolatli shaxs (bo‘lim) Bandlik vazirligida monopoliyaga qarshi komplaens tizimining erishilgan asosiy samaradorlik ko‘rsatkichlarini baholaydi (yilda kamida bir marta).

10. Bandlik vazirligi monopoliyaga qarshi komplaens tizimining ishlash samaradorligini baholash bo‘yicha asosiy ko‘rsatkichlarga erishilgani to‘g‘risidagi axborot monopoliyaga qarshi komplaens haqidagi hisobotga kiritiladi.

5-bob. Monopoliyaga qarshi komplaens haqidagi hisobot

11. Monopoliyaga qarshi komplaens haqidagi hisobot quyidagilarni o‘z ichiga qamrab oladi:

raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish xavflari bo‘yicha o‘tkazilgan baholash ishlarining natijalari hamda kamaytirish bo‘yicha choratadbirlarning bajarilishi;

monopoliyaga qarshi komplaens tizimining asosiy samaradorlik ko‘rsatkichlariga erishilgani haqidagi axborot.

12. Bandlik vazirligi tomonidan tasdiqlangan monopoliyaga qarshi komplaens bo‘yicha hisobot Bandlik vazirligining rasmiy veb-saytida joylashtiriladi va uch ish kuni ichida monopoliyaga qarshi kurashish organiga yuboriladi.

“Monopoliyaga qarshi komplaens tizimini
joriy etish va uning ishlash tartibi

to‘g‘risida”gi Nizomga
ILOVA

**Raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik
hujjatlari talablarining buzilish darajasi
bo‘yicha**

NAMUNAVIY XAVFLAR TASNIFI*

Ehtimollikni baholash (yuz berish ehtimollari)	Oqibatlar darajasi		
	Past	O‘rtacha	Yuqori
Yuqori ehtimollik			
O‘rtacha ehtimollik			
Past ehtimollik			

* Raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish darajasi bo‘yicha xavflar tasnifi tavsiyaviy ahamiyatga ega bo‘lib, bozor faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlariga qarab o‘zgartirilishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirining 2024- yil “5 ” aprel 53- son buyrug‘iga 3-ilova

Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘lim boshlig‘ining LAVOZIM YO‘RIQNOMASI

1-bob. Umumiy qoidalar.

1.1. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi boshlig‘i lavozimi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi (bundan buyon matnda Vazirlik deb yuritiladi) markaziy apparatining mustaqil tarkibiy bo‘linmasi bo‘lgan rahbarlik lavozimidir.

1.2. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi rahbari (bundan buyon matnda bo‘lim rahbari deb yuritiladi) o‘z faoliyatini vazir tomonidan tasdiqlangan ish rejasi asosida amalga oshiradi.

1.3. Bo‘lim rahbari O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga va qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon, farmoyishi va qarorlariga, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlariga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga, Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirining buyruqlari va Hay‘at qarorlariga hamda boshqa me’yoriy hujjatlarga, shuningdek, mazkur Yo‘riqnomaga amal qilgan holda ish yuritadi.

2-bob. Malakaviy talablar.

2.1. Bo‘lim rahbari lavozimiga oliy, (yurisprudensiya, iqtisodiyot, moliya yo‘nalishlarida) bakalavriat darajasidan kam bo‘lmagan ma’lumotga ega bo‘lgan, davlat organlarida yoki tashkilotlarida kamida uch yillik, shundan, rahbarlik lavozimida kamida bir yillik ish stajiga ega bo‘lgan, davlat tilini bilgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi bo‘lgan shaxslar tayinlanadi.

2.2. Korrupsiyaga oid jinoyatlarni sodir etishda sud tomonidan aybdor deb topilgan hamda og‘ir va o‘ta og‘ir jinoyatlarni sodir etganlik uchun sudlanganlik holati tugallanmagan yoki olib tashlanmagan shaxslar ushbu lavozimga tayinlanishi mumkin emas.

2.3. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi rahbari O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi (bundan buyon matnda Agentlik deb yuritiladi) bilan birgalikda o‘tkaziladigan ochiq tanlov asosida ishga qabul qilinadi.

2.4. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi rahbari vazir tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimidan ozod qilinadi.

2.5. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi rahbarini lavozimidan ozod etish masalasi Agentlik bilan belgilangan tartibda kelishiladi.

3-bob. Bo‘lim rahbarining asosiy vazifalari va funksiyalari.

3.1. Quyidagilar bo‘lim rahbarining asosiy vazifalari hisoblanadi:

3.1.1. Vazirlik markaziy apparati, bosh boshqarma, bo‘lim va tasarrufiy tashkilotlarda korrupsiyaga oid huquqbazarliklarni profilaktika qilish va ularga qarshi kurashish;

3.1.2. Hududiy boshqarmalar va tasarrufiy tashkilotlarda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini samarali ishlashini ta’minlash va nazorat qilish;

3.1.3. korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiruvchi va ishtirok etuvchi davlat organlari va tashkilotlari bilan hamkorlikni olib borish;

3.2. Bo‘lim rahbari o‘ziga yuklatilgan vazifalarga muvofiq quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

3.2.1. korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha vazirlik markaziy apparati, bosh boshqarma, bo‘lim va tasarrufiy tashkilotlarning faoliyatini takomillashtirish sohasida:

a) vazirlik tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishga qaratilgan ichki idoraviy hujjatlar loyihamini ishlab chiqadi;

b) vazirlikning korrupsiyaga qarshi kurashish chora-tadbirlarini ishlab chiqadi va tasdiqlash uchun vazirga kiritadi;

v) vazirlikning faoliyatiga oid normativ-huquqiy hujjatlar va ichki idoraviy hujjatlarda aniqlangan korrupsiyaviy normalarni bartaraf qilish bo‘yicha takliflar ishlab chiqadi;

g) bosh boshqarma, bo‘lim va tasarrufiy tashkilotlar tomonidan ishlab chiqiladigan korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha chora-tadbirlar loyihamini Vazirlik tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati va O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga mosligi, maqbulligi va dolzarbligi nuqtai nazaridan baholaydi va xulosalar beradi;

3.2.2. Vazirlik markaziy apparati, bosh boshqarma, bo‘lim va tasarrufiy tashkilotlarda korrupsiyaga oid huquqbazarliklarni profilaktika qilish va ularga qarshi kurashish sohasida:

a) Vazirlik markaziy apparati, bosh boshqarma, bo‘lim va tasarrufiy tashkilotlarda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholaydi va ularning natijalari bo‘yicha aniqlangan xavf-xatarlarni kamaytirish yuzasidan chora-tadbirlar rejalarini ishlab chiqadi;

b) Vazirlik markaziy apparati, bosh boshqarma, bo‘lim va tasarrufiy tashkilotlar xodimlari tomonidan o‘xshash huquqbazarliklar sodir etilishi ehtimolini baholash maqsadida davlat hokimiyatining boshqa organlarida korrupsiyaviy huquqbazarliklar sodir etilishining holati va yo‘nalishlari haqida ma’lumot to‘playdi;

v) maxsus axborot aloqa kanallari orqali bosh boshqarma, bo‘lim va tasarrufiy tashkilotlar xodimlari tomonidan korrupsiyaviy xavf-xatarlar va huquqbazarliklar haqida kelib tushadigan murojaatlarni tahlil qiladi va o‘rnatalgan tartibda choralar ko‘radi;

g) xizmat tekshiruvlari yakuni bo‘yicha berilgan ma’lumotnomalar va boshqa hujjatlarda korrupsiya faktlariga doir xizmat tekshiruvlari bo‘yicha ma’lumotlarning to‘g‘ri va to‘liq aks ettirib borilishini nazorat qiladi;

d) davlat xaridlarini amalga oshirishda manfaatlar to‘qnashuvini tahlil qilishda va kontragentlarning ishonchlilagini tekshirish jarayonida ishtirok etadi;

y) Vazirlik markaziy apparati, bosh boshqarma, bo‘lim va tasarrufiy tashkilotlar xodimlariga korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo‘yicha tushuntirish va tavsiyalar beradi;

j) Vazirlik markaziy apparati, bosh boshqarma, bo‘lim va tasarrufiy tashkilotlar faoliyatida korrupsiyaviy holatlarni va xavf-xatarlarni aniqlash maqsadida aholi va xodimlar orasida so‘rovlар o‘tkazadi;

z) korrupsiyaga qarshi kurashishga oid talab va normalarning buzilishi masalalari bo‘yicha intizomiy javobgarlikka tortilayotgan shaxslarga jazo choralarining mutanosibligi va yetarliligini nazorat qiladi;

i) korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish maqsadida vazirlik markaziy apparati, bosh boshqarma, bo‘lim va tasarrufiy tashkilotlarda korrupsiya faktlari yuzasidan o‘tkazilgan xizmat tekshiruvlari natijalari haqidagi ma’lumotlarni tahlil qiladi;

y) har chorakda yoki zaruratga ko‘ra vazirlik markaziy apparati, bosh boshqarma, bo‘lim va tasarrufiy tashkilotlarda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar hamda ulardagi korrupsiyaviy holat haqida vazirga ma’lumot kiritib boradi;

3.2.3. Vazirlik markaziy apparati, bosh boshqarma, bo‘lim va tasarrufiy tashkilotlarda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining samarali ishlashini ta’minlash va nazorat qilish sohasida:

a) korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha davlat dasturlarida Vazirlikka yuklatilgan vazifalar ijrosini monitoring qiladi va nazoratini amalga oshiradi;

b) korrupsiyaga qarshi normalarga oid qismi bo‘yicha mehnat organlari va tasarrufiy tashkilotlar xodimlarining malakasini oshirish bo‘yicha o‘quv rejalarini ishlab chiqishda ishtirok etadi;

v) Vazirlik tizimi xodimlari va fuqarolar o‘rtasida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha targ‘ibotlarda ishtirok etadi;

g) Vazirlik tizimidagi xodimlar tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati va tartiblariga, shuningdek, korrupsiyaviy xavf-xatarlarni kelib chiqishiga yo‘l qo‘yib beruvchi holatlar bilan bog‘liq odob-axloq qoidalariга rioya qilinishini monitoring va nazorat qiladi;

d) manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish bo‘yicha qabul qilingan qarorlarining xolisligi va maqbulligi nuqtai nazaridan odob-axloq komissiyalari faoliyatini tekshiradi;

y) amalga oshirilgan monitoring, xizmat tekshiruvlari va nazorat tadbirlari natijalari bo‘yicha korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqadi;

3.2.4. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiruvchi va ishtirok etuvchi davlat organlari va tashkilotlari bilan hamkorlikni olib borish sohasida:

a) aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishga doir chora-tadbirlarning ishlab chiqilishida ishtirok etadi;

b) Vazirlik zimmasiga qonun hujjatlari bilan yuklatilgan korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha vazifalarga muvofiq xorijiy davlatlarning vakolatli organlari so'rovlariiga javob berishda ishtirok etadi;

v) zaruratga ko'ra Vazirlik markaziy apparati, bosh boshqarma, bo'lim va tasarrufiy tashkilotlarning korrupsiyaga qarshi kurashish chora-tadbirlarini takomillashtirish yuzasidan xorijiy mutaxassislarni jalg qilish bo'yicha takliflar ishlab chiqadi;

g) korrupsiyaviy jinoyatlarni bartaraf qilish yoki tergov qilish bo'yicha tadbirlarni amalga oshirishda huquqni muhofaza qiluvchi vakolatli organlar vakillariga ko'mak beradi.

d) bo'lim rahbari bo'lmaganda Vazirning tegishli buyrug'i bilan uning vazifalari bo'lim bosh mutaxassisiga yuklatilishi mumkin.

e) bo'lim rahbari o'z vakolatlari doirasida vazir buyruqlari va topshiriqlariga asosan boshqa vazifa va funksiyalarni ham amalga oshirishi mumkin.

4-bob. Bo'lim rahbarining huquqlari, majburiyatları va javobgarligi.

4.1. Bo'lim rahbari quyidagi huquqlarga ega:

4.1.1. vazirlikka kelib tushayotgan normativ-huquqiy hujjatlarni tanishish va xizmatda foydalanish uchun olish;

4.1.2. vazirlik, shuningdek, uning tizimiga kiradigan tuzilmalar mansabdor shaxslardan Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limiga yuklangan vazifalar va funksiyalarni bajarish uchun zarur bo'lgan hujjatlar va ma'lumotlarni talab qilish va olish;

4.1.3. rahbariyat tomonidan chaqiriladigan korrupsiyaga qarshi kurashish masalalariga oid yig'ilishlar, kengashlar va majlislarda ishtirok etish;

4.1.4. xizmat majburiyatlarini bajarish doirasida vazirlik tizimi xodimlaridan zarur yordam so'rash va olish;

4.1.5. Vazirlik markaziy apparati, bosh boshqarma, bo'lim va tasarrufiy tashkilotlar rahbarlariga tizimidagi korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha ko'rib chiqilishi majburiy bo'lgan takliflar kiritish;

4.1.6. tekshiruvlar o'tkazish, jismoniy va yuridik shaxslarning korrupsiyaviy holatlar yuzasidan qilgan murojaatlarini o'rganishda barcha Vazirlik markaziy apparati, bosh boshqarma, bo'lim va tasarrufiy tashkilotlarga moneliksiz kirib-chiqish, hujjatlarni talab qilish, vazirlik tizimi xodimlaridan yozma tushuntirishlar olish, jinoyat alomatlari aniqlangan hollarda tegishli huquqni muhofaza qiluvchi organlarga xabar berish;

4.1.7. o'z faoliyati va vakolatlari doirasida Bosh boshqarma, bo'lim va tasarrufiy tashkilotlar rahbarlariga yozma tavsiyalar berish;

4.1.8. Vazirlik markaziy apparati, bosh boshqarma, bo'lim va tasarrufiy tashkilotlarning egallab turgan lavozimidan qat'i nazar barcha xodimlari o'z xizmat vazifalarini bajarmaganligi yoki yetarli darajada bajarmaganligi, vazirlik tizimining korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati, xodimlarining odob-axloq qoidalarini buzganliklari, shuningdek, huquqqa xilof harakat yoki harakatsizlik, xizmat majburiyatlarini bajarishda yuklatilgan vakolatlardan bosh tortganligi fakti yuzasidan vazirga ma'lumotnomalar kiritish;

4.1.9. barcha bosh boshqarma, bo‘lim va tasarrufiy tashkilotlarning korrupsiyaga oid majlislarida kuzatuvchi sifatida ishtirok etish, uning natijalarini belgilangan reglament va vazirlik tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi talablariga muvofiqligi haqida fikr bildirish;

4.2. Bo‘lim rahbari quyidagilarga majbur:

4.2.1. o‘ziga Qonun hujjatlari va ichki hujjatlarda yuklangan funksiyalarni zarur darajada bajarish;

4.2.2. aniqlangan qonun buzilishi (korrupsiya) holatlari to‘g‘risida zudlik bilan vazirga, O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligiga va boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlarga xabar berish;

4.2.3. bo‘lim rahbari qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

5-bob. Yakuniy qoidalar

5. Bo‘lim rahbari o‘z xizmat vazifalarini bajarmaganligi yoki yetarli darajada bajarmaganligi, Vazirlik tizimining korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati, tizim xodimlarining odob-axloq qoidalarini buzganlik, shuningdek, huquqqa xilof harakat yoki harakatsizlik, xizmat majburiyatlarini bajarishda yuklatilgan vakolatlardan bosh tortganlik uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda intizomiy yoki boshqa javobgarlikka tortiladi.

**Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi Korrupsiyaga
qarshi kurashish bo‘limi bosh mutaxassisining
LAVOZIM YO‘RIQNOMASI**

1-bob. Umumiy qoidalar.

1. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi bosh mutaxassisi lavozimi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi (bundan buyon matnda vazirlik deb yuritiladi) markaziy apparatining mustaqil tarkibiy bo‘linmasi bo‘lgan Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limida belgilangan lavozimdir.

2. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi bosh mutaxassisi (bundan buyon matnda bosh mutaxassis deb yuritiladi) o‘z faoliyatini vazir tomonidan tasdiqlangan ish rejasidagi amalga oshiradi.

3. Bosh mutaxassis O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga va qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon, farmoyishi va qarorlariga, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlariga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga, Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirining buyruqlari va Hay’at qarorlariga hamda boshqa me’yoriy hujjatlarga, shuningdek, mazkur Yo‘riqnomaga amal qilgan holda ish yuritadi.

2-bob. Malakaviy talablar.

4. Bosh mutaxassis lavozimiga oliy, (yurisprudensiya, iqtisodiyot, moliya yo‘nalishlarida) bakalavriat darajasidan kam bo‘limgan ma’lumotga ega bo‘lgan, davlat organlarida yoki tashkilotlarida kamida bir yillik ish stajiga ega bo‘lgan, davlat tilini bilgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi bo‘lgan shaxslar tayinlanadi.

5. Korrupsiyaga oid jinoyatlarni sodir etishda sud tomonidan aybdor deb topilgan hamda og‘ir va o‘ta og‘ir jinoyatlarni sodir etganlik uchun sudlanganlik holati tugallanmagan yoki olib tashlanmagan shaxslar ushbu lavozimga tayinlanishi mumkin emas.

6. Bosh mutaxassis Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi boshlig‘i tavsiyasiga ko‘ra vazir tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimidan ozod qilinadi.

3-bob. Bosh mutaxassisning asosiy vazifalari va funksiyalari.

7. Bosh mutaxassis quyidagi asosiy vazifalarni bajaradi:

7.1. Korrupsiyaga oid huquqbazarliklarni profilaktika qilish va ularga qarshi kurashish;

7.2. Vazirlik tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishga qaratilgan ichki idoraviy hujjatlar loyihamalarini ishlab chiqishda ishtirok etish va korrupsiyaviy normalarni bartaraf qilish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish;

7.3. Bosh boshqarma, bo‘lim va tasarrufiy tashkilotlarda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholaydi va ularning natijalari bo‘yicha aniqlangan xavf-xatarlarni kamaytirish yuzasidan chora-tadbirlar rejalarini ishlab chiqishda ishtirok etadi;

7.4. Maxsus axborot aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy xavf-xatarlar va huquqbazarliklar haqida kelib tushadigan murojaatlarni tahlil qiladi va o‘rnatilgan tartibda choralar ko‘rish uchun bevosita rahbariga ma’lumot beradi;

7.5. Xizmat tekshiruvlari yakuni bo'yicha berilgan ma'lumotnomalar va boshqa hujjalarda korrupsiya faktlariga doir xizmat tekshiruvlari bo'yicha ma'lumotlarning to'g'ri va to'liq aks ettirib borilishini nazorat qiladi;

7.6. Davlat xaridlarini amalga oshirishda manfaatlar to'qnashuvini tahlil qilishda va kontragentlarning ishonchlilagini tekshirish jarayonida ishtirok etadi;

7.7. Bosh boshqarma, bo'lim va tasarrufiy tashkilotlar faoliyatida korrupsiyaviy holatlar va xavf-xatarlarni aniqlash maqsadida aholi va xodimlar orasida so'rovlar o'tkazadi;

7.8. Korrupsiyaga qarshi normalarga oid qismi bo'yicha mehnat organlari va tasarrufiy tashkilotlar xodimlarining malakasini oshirish bo'yicha o'quv rejalarini ishlab chiqishda ishtirok etadi;

7.9. Vazirlik tizimi xodimlari va fuqarolar o'rtasida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha targ'ibotlarda ishtirok etadi;

7.10. Vazirlik tizimidagi xodimlar tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati va tartiblariga, shuningdek, korrupsiyaviy xavf-xatarlarni kelib chiqishiga yo'l qo'yib beruvchi holatlar bilan bog'liq odob-axloq qoidalariga riosa qilinishini monitoring va nazorat qilishda ishtirok etadi;

7.11. Vazirlik va uning tizimida monopoliya ta'siri mavjud faoliyat yo'nalişlarini aniqlash ishlarini tashkil etish;

7.12. Vazirlikda yashirin iqtisodiyot va korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha "monopoliyaga qarshi kurashish komplaens" tizimini joriy etish hamda umumiyligida komplaens-nazorat tizimini takomillashtirish bo'yicha olib boriladigan ishlarda qatnashish;

7.13. Davlat xaridlari hamda markazlashtirilgan mablag'lar hisobiga amalga oshiriladigan investitsiya loyihamarida monopoliyaga qarshi ekspertizadan o'tkazilishida ishtirok etish;

7.14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tartibi to'g'risida qarorida belgilangan Vazirlikning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha olib borayotgan faoliyati samaradorligini puxta tahlil qilish, baholash va aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish uchun taklif va tavsiyalar ishlab chiqadi;

7.15. Ishga qabul qilinuvchi nomzodlar ustidan tekshiruvlar o'tkazadi va ularni tahlil qilib boradi hamda ishga yangi qabul qilingan xodimlarning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha bilim va ko'nikmalarini oshirishini nazorat qiladi;

7.16. Vazir, vazir o'rinnbosari hamda bo'lim boshlig'i tomonidan bosh mutaxassislarning vazifa taqsimotlari belgilanishi mumkin.

7.17. Bosh mutaxassis o'z vakolatlari doirasida bo'lim boshlig'i topshiriqlariga asosan boshqa vazifa va funksiyalarni ham amalga oshirishi mumkin.

4-bob. Bosh mutaxassisning huquqlari, majburiyatları va javobgarligi.

8. Bosh mutaxassis quyidagi huquqlarga ega:

9. vazirlikka kelib tushayotgan normativ-huquqiy hujjatlar bilan tanishish va xizmatda foydalanish uchun olish;

10. vazirlik, shuningdek, uning tizimiga kiradigan tuzilmalar mansabdor shaxslardan Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limiga yuklangan vazifalar va funksiyalarni bajarish uchun zarur bo‘lgan hujjatlar va ma’lumotlarni talab qilish va olish;

11. rahbariyat tomonidan chaqiriladigan korrupsiyaga qarshi kurashish masalalariga oid yig‘ilishlar, kengashlar va majlislarda ishtirok etish;

12. xizmat majburiyatlarini bajarish doirasida Vazirlik tizimi xodimlaridan zarur yordam so‘rash va olish;

13. rahbariyat topshiriqlariga ko‘ra tekshiruvlar o‘tkazish, jismoniy va yuridik shaxslarning korrupsiyaviy holatlar yuzasidan qilgan murojaatlarini o‘rganishda barcha mehnat organlari va tasarrufiy tashkilotlarga moneliksiz kirib-chiqish, hujjatlarni talab qilish va olish, vazirlik tizimi xodimlaridan yozma tushuntirishlar olish, jinoyat alomatlari aniqlangan hollarda tegishli huquqni muhofaza qiluvchi organlarga xabar berish;

14. o‘z faoliyati va vakolatlari doirasida mehnat organlari va tasarrufiy tashkilotlar rahbarlariga yozma tavsiyalar berish;

15. bosh boshqarma, bo‘lim va tasarrufiy tashkilotlarning egallab turgan lavozimidan qat‘i nazar barcha xodimlari o‘z xizmat vazifalarini bajarmaganligi yoki yetarli darajada bajarmaganligi, vazirlik tizimining korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati, mehnat organlari xodimlarining odob-axloq qoidalarini buzganliklari, shuningdek, huquqqa xilof harakat yoki harakatsizlik, xizmat majburiyatlarini bajarishda yuklatilgan vakolatlardan bosh tortganligi fakti yuzasidan bevosita rahbariga ma’lumotlar berish;

16. barcha bosh boshqarma, bo‘lim va tasarrufiy tashkilotlarning korrupsiyaga oid majlislarida kuzatuvchi sifatida ishtirok etish, uning natijalarini belgilangan reglament va Vazirlik tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi talablariga muvofiqligi haqida fikr bildirish;

17. Bosh mutaxassis quyidagilarga majbur:

18. o‘ziga Qonun hujjatlari va ichki hujjatlarda yuklangan funksiyalarni zarur darajada bajarish;

19. aniqlangan qonun buzilishi (korrupsiya) holatlari to‘g‘risida zudlik bilan bevosita rahbariga xabar berish;

20. Bosh mutaxassis qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

5-bob. Yakuniy qoidalar

21. Bosh mutaxassisi o‘z xizmat vazifalarini bajarmaganligi yoki yetarli darajada bajarmaganligi, vazirlik tizimining korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati, mehnat organlari xodimlarining odob-axloq qoidalarini buzganlik, shuningdek, huquqqa xilof

harakat yoki harakatsizlik, xizmat majburiyatlarini bajarishda yuklatilgan vakolatlardan bosh tortganlik uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda intizomiy yoki boshqa javobgarlikka tortiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni
qisqartirish va bandlik vazirining 2024- yil
“5 ” aprel 53- son buyrug‘iga 4-ilova

O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligining 2023-yil 26-maydagi 91-son buyrug‘i 1-ilovasi va 2-ilovasiga o‘zgartish va qo‘srimchalar kiritish to‘g‘risida.

1. Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirining 2023-yil 26-maydagi 91-son buyrug‘ining 1-ilovasi “O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligining korrupsiyaga qarshi kurashish” Siyosatiga quyidagi mazmundagi o‘zgartish va qo‘srimchalar kiritilsin:

8-band quyidagi mazmundagi tushunchalar bilan to‘ldirilsin:

“kasbiy halollik – mehnat organlarida xizmat o‘tayotgan xodimlarning o‘z kasbiy faoliyatini yuksak axloqiy me’yorlarga riosa qilgan holda, bosim va korrupsiyasiz, qonunchilik ustunligini ta’minalash, davlat manfaatlariga, sodiqlik va vazirlik tizimida o‘rnatalgan qoidalarga itoat etish;

kasbiy halollikni tekshirish – mehnat organlarida xizmat o‘tayotgan xodimlarning o‘z kasbiy faoliyati va xatti-harakatlarida qonunchilik talablari, xizmatni o‘tash qoidalari hamda axloqiy me’yorlarga riosa etishni yashirin vositalar orqali amalga oshirish;

“sirli mijoz” tadbiri – vazirlik, hududiy boshqarmalar va tasarrufiy tashkilotlar tomonidan ko‘rsatilayotgan davlat xizmatlarining sifati va tezligini, shuningdek haqqoniy va ochiq tanlov natijalariga ko‘ra tanlab olingan mustaqil tashkilotlar tomonidan korrupsiyaviy huquqbuzarliklar sodir etilishiga moyilligini aniqlash uchun xizmatlarning haqiqiy oluvchilari sifatida alohida nazorat tadbirlari.

xodimlar attestatsiyasi – mehnat organlarida xizmat o‘tayotgan xodimlarning kasbiy malakasini (tayyorgarligini) tizimli asosda aniqlash jarayoni (usuli).”.

11-bandning “g-z” bandlari “h-i” bandlari deb o‘qilsin.

11 band qo‘yidagi mazmundagi kichik bandlar bilan to‘ldirilsin:

“f) xodimlar tomonidan ularga tegishli mol-mulk va daromadlari to‘g‘risidagi deklaratsiyalar haqqoniyligini tekshirish:

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi Vazirlik tizimida korrupsiyaga qarshi kurashishda xodimlar tomonidan ularga tegishli mol-mulk va daromadlari to‘g‘risidagi har yilgi taqdim etiladigan deklaratsiyalar haqqoniyligini tekshiradi. O‘tkazilgan tekshirishlar natijalari bo‘yicha vazirlik, hududiy boshqarmalar va tasarrufiy tashkilotlarda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish yuzasidan tegishli choralar ko‘riladi.

Vazirlik, hududiy boshqarmalar va tasarrufiy tashkilotlarda xodimlar tomonidan ularga tegishli mol-mulk va daromadlari to‘g‘risidagi har yilgi taqdim etiladigan deklaratsiyalar haqqoniyligini tekshirilishi quyidagi tartib-taomillari amalga oshiriladi:

xodimlar tomonidan ularga tegishli mol-mulk va daromadlari to‘g‘risidagi har yilgi taqdim etiladigan deklaratsiyalar vaqtida, to‘g‘ri va asosli to‘ldirilganligini tekshirish;

xodimlar asosiy ishdan tashqari boshqa haq to‘lanadigan ishlar bilan shug‘ullanmasligini hamda faoliyatlarida manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘yilmaganligini tekshirish;

xodimlarning chet elda mol-mulki, manfaatlari, xorijiy banklar va moliyaviy tashkilotlarda hisob raqamlari va mavjud emasligi, chet elda daromadlar olinmasligini tekshirish;

xodimlarning mol-mulki oshishi daromadlariga to‘g‘ri kelishi va shuning asoslari mavjudligini tekshirish

g) vazirlikning Korrupsiyaga qarshi kurashish Siyosatning samaradorligini baholash:

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi Vazirlik tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish Siyosatning samaradorligini baholaydi. O‘tkazilgan baholash natijalari bo‘yicha vazirlik, hududiy boshqarmalar va tasarrufiy tashkilotlarda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish yuzasidan tegishli choralar ko‘riladi.

Vazirlik, hududiy boshqarmalar va tasarrufiy tashkilotlarda korrupsiyaga qarshi kurashish Siyosatning samaradorligini quyidagi ko‘rsatgichlar asosida baholanadi:

- vazirlik tizimida korrupsiyaviy huquqbuzarliklar soni markaziy apparat va hududlar darajasida kamayishi;

- vazirlik rahbariyatiga fuqarolardan kelib tushgan shikoyat va murojaatlarning umumiyligi sonidan aniqlangan korrupsiyaga oid faktlarning ulushi;

- korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo‘yicha o‘tkazilgan tadbirlar soni oshishi;

- vazirlik xodimlari tomonidan manfaatlar to‘qnashuvi, daromadlar, mol-mulk va mulkiy xarakterdagi majburiyatlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni taqdim etgan hududdagi xodimlarning monitoringdan o‘tkazilganlik ulushi;

- vazirlik tizimida davlat xaridlarini amalga oshirish sohasida qonun buzilishlari to‘g‘risidagi shikoyatlarning umumiyligi sonidan asosli shikoyatlarning ulushi;

- vazirlik tizimida qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarning umumiyligi sonidan korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o‘tgan normativ-huquqiy hujjatlari loyihalari ulushi;

- korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o‘tkazilgan hududiy normativ-huquqiy hujjatlarda (loyihalarda) aniqlangan korrupsiya omillaridan bartaraf etilgan miqdori ulushi;

- vazirlikda davlat xizmatlarini elektron shaklda ko‘rsatilishining ko‘rsatkichi bilan ko‘rsatilgan umumiy xizmatlar sonidagi ulushi;
- korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish bo‘yicha o‘qitilgan va malakasi oshirilgan xodimlarning soni;
- xodimlar tomonidan ularga tegishli mol-mulk va daromadlari to‘g‘risidagi har yilgi taqdim etiladigan deklaratsiyalar vaqtida, to‘g‘ri va asosli to‘ldirilganligi;
- markaziy apparat, hududlardagi korrupsiyaga qarshi kurashishga vakolatli organlar saytlarida korrupsiyaga qarshi kurash dasturi va uning bajarilishi to‘g‘risidagi hisobotning joylashtirilishi.”.

11-bandning “h”kichik bandi qo‘yidagi mazmunda tahrir etilsin:

“h) huquqbuzarliklarga nisbatan munosabat bildirish va aybdor shaxslarni javobgarlikka tortish:

Korrupsiyaga qarshi kurashish Siyosatiga amal qilish va Vazirlik tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish chora-tadbirlariga rioya qilish har bir xodim uchun o‘z xizmat majburiyatlarining bajarilishi doirasida majburiydir. Xodimlar belgilangan talab va tartib-taomillarning buzganligi uchun shaxsan javobgar hisoblanadilar.

Bundan tashqari, bevosita rahbarlar o‘z bo‘ysunuvidagi xodimlar tomonidan korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etilganligi uchun shaxsan javobgar hisoblanadilar;

korrupsiyaga qarshi kurashishga — oid belgilangan talablar va tamoyillarni buzgan vazirlik, hududiy boshqarmalar va tasarrufiy tashkilotlar xodimlari O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi belgilangan tartibda va asoslarda intizomiy, ma’muriy yoki jinoiy javobgarlikka tortiladilar;

xodimlar ularni korrupsiya bilan bog‘liq huquqbuzarlikni sodir etishga undovchi shaxslarning har qanday murojaatlari to‘g‘risida, shuningdek, boshqa xodimlar tomonidan sodir etilgan korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqida o‘ziga ma’lum bo‘lgan har qanday faktlar haqida to‘g‘ridan-to‘g‘ri Vazirlikning Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limiga xabar berishlari shart;

korrupsiyaga mutlaqo toqatsizlik tamoyilini hisobga olgan holda, Vazirlik tizimida vazirlik, hududiy boshqarmalar va tasarrufiy tashkilotlar xodimlarining korrupsiyaga oid huquqbuzarlik sodir etishlari bilan bog‘liq har qanday asosli shubha bo‘yicha xizmat tekshiruvlari O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga muvofiq va ichki hujjatlarda belgilangan tartibda o‘tkaziladi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi qonun hujjatlari normalarini va (yoki) mazkur Korrupsiyaga qarshi kurashish Siyosati va vazirlik, hududiy boshqarmalar va tasarrufiy tashkilotlarning boshqa ichki hujjatlarida belgilangan korrupsiyaga qarshi talab va tartib-taomillarni buzgan xodimlar, ularning lavozimi, xizmat muddati va boshqa omillardan qat’iy nazar O‘zbekiston Respublikasi

qonunchiligidagi hamda vazirlik, hududiy boshqarmalar va tasarrufiy tashkilotlarning ichki hujjatlarida nazarda tutilgan doirada va asoslarda javobgarlikka tortiladilar;

korrupsiyaga oid huquqbazarlik aniqlangan taqdirda vazirlik, hududiy boshqarmalar va tasarrufiy tashkilotlar, ularning sodir etilish sabablari va shart-sharoitlarini tahlil qiladilar va doimiy asosda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtiradilar;

vazirlik, hududiy boshqarmalar va tasarrufiy tashkilotlar korrupsiyaga oid huquqbazarliklarni aniqlash va tekshirish uchun boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlar va davlat organlari bilan hamkorlik qiladilar.”.

6 paragrafda:

Nomi qo‘yidagi tahrirda bayon etilsin:

“§ 6. Kasbiy halollikni tekshirish va “Sirli mijoz” tadbiri.”.

22-bandи oluvchilari sifatida so‘zlaridan keyin “kasbiy halollikni tekshirish” va “sirli mijoz” kabi” so‘zları bilan to‘ldirilsin.

23-bandи tashkilotlar o‘tkazilgan so‘zlaridan keyin “kasbiy halollikni tekshirish” so‘zları bilan to‘ldirilsin.

Ilova

Vazirlik darajasida qabul qilingan Korrupsiyaga qarshi siyosati samaradorligining maqsadli ko‘rsatkichlari

Vazirlik darajasida qabul qilingan Korrupsiyaga qarshi siyosati samaradorligining maqsadli ko‘rsatkichlari			
№	Maqsadli ko‘rsatkichlari	2023	2024
	Vazirlik tizimida korrupsiyaviy huquqbazarliklar sonining markaziy apparat va hududlar darajasida kamayishi (%);		
	Vazirlik rahbariyatiga fuqarolardan kelib tushgan shikoyat va murojaatlarning umumiy sonidan aniqlangan korrupsiyaga oid faktlarning ulushi (%);		
	Korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo‘yicha o‘tkazilgan tadbirlar soni oshishi (o‘tgan yil bilan solishtirish %);		
	Vazirlik xodimlari tomonidan manfaatlar to‘qnashuvi, daromadlar, mol-mulk va mulkiy xarakterdagi majburiyatlar to‘g‘risidagi ma’lumotharni taqdim etgan hududdagi xodimlarning monitoringdan o‘tkazilganlik ulushi (%);		

	Vazirlik tizimida davlat xaridlarini amalga oshirish sohasida qonun buzilishlari to‘g‘risidagi shikoyatlarning umumiy sonidan asosli shikoyatlarning ulushi (%);		
	Vazirlik tizimida qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarning umumiy sonidan korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o‘tgan normativ-huquqiy hujjatlari loyihalari ulushi (%);		
	Korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o‘tkazilgan hududiy normativ-huquqiy hujjatlarda (loyihalarda) aniqlangan korrupsiya omillaridan bartaraf etilgan miqdori ulushi (%);		
	Vazirlikda davlat xizmatlarini elektron shaklda ko‘rsatilishining ko‘rsatkichi bilan ko‘rsatilgan umumiy xizmatlar sonidagi ulushi (%);		
	Korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish bo‘yicha o‘qitilgan va malakasi oshirilgan xodimlarning soni (o‘tgan yil bilan solishtirish) (%);		
	Xodimlar tomonidan xodimlar tomonidan ularga tegishli mol-mulk va daromadlari to‘g‘risidagi har yilgi taqdim etiladigan deklaratsiyalar vaqtida, to‘g‘ri va asosli to‘ldirilganligi;		
	Markaziy apparat, hududlardagi korrupsiyaga qarshi kurashishga vakolatli organlar saytlarida korrupsiyaga qarshi kurash dasturi va uning bajarilishi to‘g‘risidagi hisobotning joylashtirilishi.		

2. Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirining 2023-yil 26-maydagi 91-son buyrug‘ining 2-ilovasi “Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi va uning tizimidagi boshqarmalar (tashkilotlar) xodimi tomonidan xizmat safarları, xalqaro va boshqa rasmiy tadbirlar munosabati bilan olinishi mumkin bo‘lgan sovg‘a qiymati, shuningdek uni tasarruf etish tartibi to‘g‘risida” nizomiga quyidagi mazmundagi o‘zgartish va qo‘srimchalar kiritilsin:

Nizomda:

Nomi qo‘yidagi tahrirda bayon etilsin:

“Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi va uning tizimidagi boshqarmalar (tashkilotlar) xodimi tomonidan xizmatni o‘tash, xizmat safarları, xalqaro va boshqa rasmiy tadbirlar munosabati bilan olinishi mumkin bo‘lgan sovg‘a qiymati, shuningdek, uni tasarruf etish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomning xodimlari tomonidan so‘zlaridan keyin “xizmatni o‘tash” so‘zleri bilan to‘ldirilsin.

1-bandni tashkilotlar xodimi so‘zlaridan keyin “xizmatni o‘tash” so‘zleri bilan to‘ldirilsin.

1-bandning ikkinchi xat boshisi quyidagi mazmunda bayon etilsin “Mehnat organlarida xizmatni o‘tash, O‘zbekiston Respublikasi hududida o‘tkaziladigan xalqaro va boshqa rasmiy tadbirlar bilan bog‘liq bo‘lmagan xizmat safarları munosabati bilan

Vazirlik, hududiy boshqarmalar va tasarrufiy tashkilotlar xodimining sovg‘a olishi ta’qiqlanadi.”.

2-band quyidagi mazmundagi tushunchalar bilan to‘ldirilsin:

“beg‘araz ko‘rsatilgan xizmat — mehnat organlari xodimlariga xizmatni o‘tash, xalqaro va boshqa rasmiy tadbirlar munosabati bilan jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan bepul taqdim etilgan, moddiy qimmatga ega bo‘lmasligi ko‘rsatilgan xizmat;

xizmatni o‘tash — mehnat organi xodimining vazirlik, hududiy boshqarmalar va tasarrufiy tashkilotlarda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, qonunchilik aktlari asosida xizmat vazifalarini bajarish hisoblanadi. Xizmatni o‘tash quyidagi tartiblarni o‘z ichiga oladi: xizmatga qabul qilish, unvonlar berish va ulardan mahrum etish, lavozimga tayinlash, lavozimdan ozod etish va rotatsiya, xodimlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, attestatsiya o‘tkazish, ta’tillar berish, huquqiy va ijtimoiy himoya qilish, xizmat o‘tash tartibini ta’minalash, xizmat muddatlarini uzaytirish, xizmatdan bo‘shatish va xizmatga tiklash;

sovg‘a yoki xizmat qiymati — xodimlarga sovg‘a yoki xizmat ko‘rsatish ko‘rinishida taqdim etilgan, moddiy qimmatga ega bo‘lgan mol-mulk yoki beg‘araz ko‘rsatilgan xizmat qiymati tushuniladi. Vazirlik, hududiy boshqarmalar va tasarrufiy tashkilotlar xodimlariga bir marta bazaviy hisoblash miqdorining 4 (to‘rt) baravaridan oshadigan va yil davomida 10 (o‘n) baravaridan oshadigan har qanday sovg‘alarni qabul qilinishi ta’qiqlanadi.”.

2-band mehmono‘stlik belgisi, sovg‘a beruvchi va sovg‘alar reyestri tushunchalariga “xizmatni o‘tash” so‘zlarini bilan to‘ldirilsin.

2-bandi sovg‘a tushunchasi quyidagi mazmunda bayon etilsin:

“sovg‘a — vazirlik, hududiy boshqarmalar va tasarrufiy tashkilotlar xodimiga xizmatni o‘tash, xalqaro va boshqa rasmiy tadbirlar munosabati bilan jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan bepul taqdim etilgan, moddiy qimmatga ega bo‘lgan mol-mulk yoki beg‘araz ko‘rsatilgan xizmat hisoblanadi.”.

5, 6, 18-bandlaridagi tashkilotlar xodimi so‘zlaridan keyin “xizmatni o‘tash” so‘zlarini bilan to‘ldirilsin.

2-bobda:

Nomi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“2-bob. Xizmatni o‘tash, xalqaro va boshqa rasmiy tadbirlar munosabati bilan taqdim etilgan sovg‘ani qabul qilish talablari.”.

8-band xodimlari tomonidan so‘zlaridan keyin “xizmatni o‘tash” so‘zlarini bilan to‘ldirilsin.

O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirining 2024- yil
“5 ” aprel 53- son buyrug‘iga 5-ilova

O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligida raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish xavflarini kamaytirish bo‘yicha 2024-yilga mo‘ljallangan

“YO‘L XARITASI”

T/r	Amalga oshiriladigan chora-tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi va bosqichlari	Muddat	Mas’ul ijrochilar
1.	Raqobat qonunchiliga kiritilayotgan o‘zgarishlarni o‘rganib borish, shuningdek, qonunchilikka kiritilgan o‘zgartirishlardan kelib chiqib, idoraviy hujjatlarni muvofiqlashtirish yuzasidan rahbariyatga takliflar kiritish.	<p>Tizimli ravishda raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlariaga kiritilayotgan o‘zgarishlarni o‘rganib borish.</p> <p>Vazirlikda raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablari buzilishi mumkin bo‘lgan sohalarni tahlil qilish.</p>	Har chorakda	Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi (D.Xasanov), Ichki audit boshqarmasi (F.Azizov), Yuridik ta’minlash bo‘limi (A.Abdukarimov) Hududiy bosh boshqarmalar va tasarrufiy tashkilotlar
2.	Vazirlik xodimlari orasida “Monopoliyaga qarshi qonunchilik va unga amal qilish” mavzusida seminarlar va muloqotlar o‘tkazish.	<p>Vazirlik xodimlari orasida raqobat qonunchiligi va uning buzilish ehtimollari hamda unga kiritilayotgan o‘zgarishlar, yangiliklar to‘g‘risida seminar-trening mashg‘ulotlarini o‘tkazish.</p> <p>Faoliyat davomida xodimlarga muntaзам ravishda raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablariga amal qilish</p>	Har chorakda	Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi (D.Xasanov), Ichki audit boshqarmasi (F.Azizov), Hududiy bosh boshqarmalar va tasarrufiy tashkilotlar

		bilan bog'liq masalalar bo'yicha maslahatlar berib borish.		
3.	Raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish ehtimolligini aniqlash va baholash.	<p>Oxirgi 3-yil davomida monopoliyaga qarshi organ tomonidan o'tkazilgan tekshirishlar, aniqlangan qoidabuzarliklar, berilgan taqdimnomalarni o'rghanish.</p> <p>Vazirlik o'z ustun mavqeini suiste'mol qilishi va (yoki) raqobatni cheklashi mumkin bo'lgan holatlarni o'rghanish.</p> <p>O'tkazilgan o'rghanishlar va tahlillar natijasida qonunchilik buzilishi mumkin bo'lgan sohalarni xavflar tasnifi asosida taqsimlash hamda bu yuzasidan monopoliyaga qarshi organga axborot kiritish.</p>	Har chorakda	Ichki audit boshqarmasi (F.Azizov), Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi (D.Xasanov), Hududiy bosh boshqarmalar va tasarrufiy tashkilotlar
4.	Raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish xavflarini aniqlash va ularning oldini olish.	<p>Faoliyatga tegishli materiallarni tahlil qilish (<i>shu jumladan, raqobatni va (yoki) iste'molchilarining huquq va manfaatlarini cheklaydigan normalarni aniqlashga qaratilgan ichki hujjatlarni xatlovdan o'tkazish</i>), aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etishga yo'naltirilgan choralarни ishlab chiqish.</p> <p>Vazirlik tomonidan chiqariladigan hujjatlar (<i>qaror, farmoyish, buyruq, yig'ilish bayonlari va boshqalar</i>) loyihamini doimiy o'rGANIB borish. Bunda raqobat to'g'risidagi</p>	Doimiy	Ichki audit boshqarmasi (F.Azizov), Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi (D.Xasanov), Yuridik ta'minlash bo'limi (A.Abdukarimov), Moliya-iqtisod boshqarmasi (O'.Choriyev),

	<p>qonunchilik hujjatlari talablarining buzilishini keltirib chiqarishi mumkin bo‘lgan normalar aniqlangan taqdirda, bu haqda rahbarni xabardor qilish.</p> <p>Raqobat cheklovlarini keltirib chiqarishi mumkin bo‘lgan omillarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish.</p> <p>Vazirlik tomonidan tanlov (tender) va birja savdolari o‘tkazilishida raqobat to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan belgilangan tartibda nazoratni amalga oshirish.</p> <p>Vazirlik (tarkibiy bo‘linmalari) va boshqa yuridik shaxslar o‘rtasida tuziladigan shartnomalarni o‘rganib borish. Bunda:</p> <ul style="list-style-type: none"> - ayrim xo‘jalik yurituvchi subyektlarga ularni tovar yoki moliya bozorida faoliyat ko‘rsatayotgan boshqa xo‘jalik yurituvchi subyektlarga nisbatan afzal holatga qo‘yadigan imtiyozlar, preferensiyalar va yengilliklarni asossiz ravishda berish holatlarining; - ayrim xo‘jalik yurituvchi subyektlarning faoliyati uchun boshqa kamshituvchi yoki imtiyozli shartlar (sharoitlar) belgilash holatlarining; 		<p>Investitsiya loyihalarini muvofiqlashtirish, davlat xaridlari va davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish bo‘limi (B.Dimetov)</p> <p>Hududiy bosh boshqarmalar va tasarrufiy tashkilotlar</p>
--	--	--	---

		<p>- til biriktirish va kartel kelishuvlar sodir etilishining oldini olish.</p> <p>Monopol korxona tomonidan sotiladigan, ular bo'yicha ushbu subyektning ustun mavqeい e'tirof etilgan tovarlarga (ishlarga, xizmatlarga) monopol yuqori va monopol past narxlar o'rnatalishiga olib keladigan yoki olib kelishi mumkin bo'lgan harakatlarni o'rganish.</p>		
5.	Monopoliyaga qarshi komplaens tizimi yuzasidan tayyorlash.	<p>Monopoliyaga qarshi komplaens bo'yicha hisobot tayyorlash:</p> <p>raqobat to'g'risidagi qonun buzilishi xavfini baholash natijalari to'g'risida;</p> <p>raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari buzilishi xavfini kamaytirish yuzasidan ko'rilgan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi to'g'risida;</p> <p>monopoliyaga qarshi komplaensning asosiy ko'rsatkichlariga erishish to'g'risida;</p> <p>Monopoliyaga qarshi komplaens to'g'risidagi hisobotni rasmiy veb-saytga joylashtirish va monopoliyaga qarshi organga yuborish.</p>	Har yili 15 dekabrga qadar	Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi (D.Xasanov), Ichki audit boshqarmasi (F.Azizov), Hududiy bosh boshqarmalar va tasarrufiy tashkilotlar
6.	Monopoliyaga qarshi kurashish organi bilan doimiy	Monopoliyaga qarshi kurashish organi bilan elektron pochta, telegram va rasmiy	Har yili 15-dekabrga qadar	Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi (D.Xasanov),

axborot almashinuvini amalga oshirish.	veb-sayt orqali yangi loyiha va takliflar bo'yicha axborot almashish.		Ichki audit boshqarmasi (F.Azizov), Hududiy bosh boshqarmalar va tasarrufiy tashkilotlar
--	---	--	--



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH VA BANDLIK VAZIRLIGI
B U Y R U Q

2024-yil "5" aprel

53-son

Toshkent shahri

**Kambag'allikni qisqartirish va bandlik
vazirligi tizimida monopoliyaga qarshi
komplaens tizimini joriy etish to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 3-iyuldag'i "Raqobat to'g'risida"gi O'RQ-850-son Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-iyundagi "Raqobat muhitini yanada rivojlantirish va iqtisodiyotdag'i davlat ishtirokini qisqartirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-6019-son Farmoni hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 2-martdag'i "Monopoliyaga qarshi komplaens tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 114-son qarori ijrosini ta'minlash maqsadida,

B U Y U R A M A N :

1. O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 3-iyuldag'i "Raqobat to'g'risida"gi O'RQ-850-son Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-iyundagi "Raqobat muhitini yanada rivojlantirish va iqtisodiyotdag'i davlat ishtirokini qisqartirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-6019-son Farmoni hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 2-martdag'i "Monopoliyaga qarshi komplaens tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 114-son qarori ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Belgilab qo'yilsinki:

a) monopoliyaga qarshi komplaens tizimi, faoliyatning raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlariga muvofiqligini ta'minlash, huquqbazarliklar xavfini aniqlash va ularning oldini olishga qaratilgan ichki tashkiliy chora-tadbirlar va taomillarni o'z ichiga oladi.

b) quyidagilar monopoliyaga qarshi komplaens tizimining asosiy vazifalari etib belgilansin:

raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlarining ehtimoliy buzilish xavflarini aniqlash, ularni baholash va boshqarib borish;

Vazirlik faoliyatini raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablariga muvofiqlashtirish va monitoring qilish;

Vazirlik faoliyatida raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablarini buzilishi hamda rahbariyat tomonidan o‘z vazifalarini bajarish jarayonida raqobatga zid xatti-harakatlar amalga oshirilishining oldini olish;

monopoliyaga qarshi komplaens tizimining ishlash samaradorligini baholash mexanizmini joriy etish;

raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablari buzilishining oldini olish va muntazam ravishda ushbu yo‘nalish bo‘yicha xodimlarning malakasini oshirish maqsadida o‘qitish, raqobat qonunchiligiga doir amaliy ishlarni rivojlantirish.

3. Monopoliyaga qarshi komplaens tizimining vazifalari va funksiyalari Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limiga yuklatilsin.

4. Quyidagilar:

korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi to‘g‘risidagi nizom 1-ilovaga;

monopoliyaga qarshi komplaens tizimini joriy etish va uning ishlash tartibi to‘g‘risida nizom 2-ilovaga;

korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi rahbar va xodimlarining lavozim yo‘riqnomalari 3-ilovaga;

Vazirlikning 2023-yil 26-maydagi 91-sod buyrug‘i 1-ilovasi va 2-ilovasiga o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritish 4-ilovaga;

Vazirlik tizimida raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablari buzilishi xavflarini kamaytirish bo‘yicha 2024-yilga mo‘ljallangan “Yo‘l xaritasi” 5-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. Vazirlik markaziy apparati, hududiy va tasarrufiy tashkilotlar ushbu tasdiqlangan hujjatlar asosida ishlarni tashkil etish choralarini ko‘rsin.

6. Mazkur buyruq ijrosining nazoratini o‘z zimmamda qoldiraman.

Vazir



B. Musaev

O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni
qisqartirish va bandlik vazirining
2024- yil “5 ” aprel 53- son buyrug‘iga
1-ilova

**Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligining
Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi to‘g‘risida**

NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligining Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi (bundan buyon matnda Vazirlik deb yuritiladi) markaziy apparatining tarkibiy tuzilmasi bo‘lib, bevosita O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vaziriga (bundan buyon matnda Vazir deb yuritiladi) bo‘ysunadi.

2. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, boshqa normativ-huquqiy hujjatlar, O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi to‘g‘risidagi nizom, Vazirlik Hay’atining qarorlari, vazir buyruqlari, ko‘rsatmalari, shuningdek mazkur Nizomga amal qiladi.

3. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi hududiy bosh boshqarma, bo‘lim va tasarrufiy tashkilotlar (bundan buyon matnda tizim tashkilotlari deb yuritiladi) faoliyatiga korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini joriy qilish va uni nazorat qilish bo‘yicha uslubiy rahbarlik qiladi.

2-bob. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limining vazifalari va funksiyalari.

4. Quyidagilar Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limining asosiy vazifalari hisoblanadi:

tizim tashkilotlarda korrupsiyaga oid huquqbazarliklarni profilaktika qilish va ularga qarshi kurashish;

tizim tashkilotlarda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini samarali ishlashini ta’minlash va nazorat qilish;

korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiruvchi va ishtirok etuvchi davlat organlari va tashkilotlari bilan hamkorlikni olib borish.

5. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi o‘ziga yuklatilgan vazifalarga muvofiq quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

1) korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha tizim tashkilotlarining faoliyatini takomillashtirish sohasida:

Vazirlik tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishga qaratilgan ichki idoraviy hujjatlar loyihibalarini ishlab chiqadi;

Vazirlikning korrupsiyaga qarshi kurashish chora-tadbirlarini ishlab chiqadi va tasdiqlash uchun vazirga kiritadi;

Vazirlikning faoliyatiga oid normativ-huquqiy hujjatlar va ichki idoraviy hujjatlarda aniqlangan korrupsiyaviy normalarni bartaraf qilish bo‘yicha takliflar ishlab chiqadi;

Tizim tashkilotlari tomonidan ishlab chiqiladigan korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha chora-tadbirlar loyihibalarini Vazirlik tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati va O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga mosligi, maqbulligi va dolzarbliги nuqtai nazaridan baholaydi va xulosalar beradi;

2) tizim tashkilotlarida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni profilaktika qilish va ularga qarshi kurashish sohasida:

tizim tashkilotlarida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholaydi va ularning natijalari bo‘yicha aniqlangan xavf-xatarlarni kamaytirish yuzasidan chora-tadbirlar rejalarini ishlab chiqadi;

tizim tashkilotlari xodimlari tomonidan o‘xshash huquqbuzarliklar sodir etilishi ehtimolini baholash maqsadida davlat hokimiyatining boshqa organlarida korrupsiyaviy huquqbuzarliklar sodir etilishining holati va yo‘nalishlari haqida ma’lumot to‘playdi;

maxsus axborot aloqa kanallari orqali tizim tashkilotlari xodimlari tomonidan korrupsiyaviy xavf-xatarlar va huquqbuzarliklar haqida kelib tushadigan murojaatlarni tahlil qiladi va o‘rnatilgan tartibda choralar ko‘radi;

xizmat tekshiruvlari yakuni bo‘yicha berilgan ma’lumotnomalar va boshqa hujjatlarda korrupsiya faktlariga doir xizmat tekshiruvlari bo‘yicha ma’lumotlarning to‘g‘ri va to‘liq aks ettirib borilishini nazorat qiladi;

davlat xaridlarini amalga oshirishda manfaatlar to‘qnashuvini tahlil qilishda va kontragentlarning ishonchlilagini tekshirish jarayonida ishtirop etadi;

tizim tashkilotlari xodimlariga korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo‘yicha tushuntirish va tavsiyalar beradi;

korrupsiya faktlari haqida xabar berishga mo‘ljallangan maxsus axborot aloqa kanallarining ish natijalarini tahlil qiladi va xodimlarning korrupsiyaviy xavf-xatarlardan xabardorligini oshirish maqsadida tahliliy materiallarni manfaatdor shaxslarga yetkazadi;

tizim tashkilotlari faoliyatida korrupsiyaviy holatlarni va xavf-xatarlarni aniqlash maqsadida aholi va xodimlar orasida so‘rovlar o‘tkazadi;

korrupsiyaga qarshi kurashishga oid talab va normalarning buzilishi masalalari bo‘yicha intizomiy javobgarlikka tortilayotgan shaxslarga jazo choralarining mutanosibligi va yetarlilagini nazorat qiladi;

korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish maqsadida tizim tashkilotlarida korrupsiya faktlari yuzasidan o‘tkazilgan xizmat tekshiruvlari natijalari haqidagi ma’lumotlarni tahlil qiladi;

har chorakda yoki zaruratga ko‘ra tizim tashkilotlarida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar hamda ulardagи korrupsiyaviy holat haqida vazirga ma’lumot kiritib boradi;

3) tizim tashkilotlarda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining samarali ishlashini ta'minlash va nazorat qilish sohasida:

korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha davlat dasturlarida Vazirlikka yuklatilgan vazifalar ijrosini monitoring qiladi va nazoratini amalga oshiradi;

korrupsiyaga qarshi normalarga oid qismi bo'yicha tizim tashkilotlari xodimlarining malakasini oshirish bo'yicha o'quv rejalarini ishlab chiqishda ishtirok etadi;

Vazirlik tizimi xodimlari va fuqarolar o'rtasida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha targ'ibotlarda ishtirok etadi;

Vazirlik tizimidagi xodimlar tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati va tartiblariga, shuningdek, korrupsiyaviy xavf-xatarlarni kelib chiqishiga yo'l qo'yib beruvchi holatlar bilan bog'liq odob-axloq qoidalariga rioya qilinishini monitoring va nazorat qiladi;

manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish bo'yicha qabul qilingan qarorlarining xolisligi va maqbulligi nuqtai nazaridan Odob-axloq komissiyalari faoliyatini tekshiradi;

amalga oshirilgan monitoring, xizmat tekshiruvlari va nazorat tadbirlari natijalari bo'yicha korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqadi;

4) korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi va ishtirok etuvchi davlat organlari va tashkilotlari bilan hamkorlikni olib borish sohasida:

aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishga doir chora-tadbirlarning ishlab chiqilishida ishtirok etadi;

Vazirlik zimmasiga qonun hujatlari bilan yuklatilgan korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha vazifalarga muvofiq xorijiy davlatlarning vakolatli organlari so'rovlariiga javob berishda ishtirok etadi;

Zaruratga ko'ra tizim tashkilotlarining korrupsiyaga qarshi kurashish chora-tadbirlarini takomillashtirish yuzasidan xorijiy mutaxassislarni jalb qilish bo'yicha takliflar ishlab chiqadi;

korrupsiyaviy jinoyatlarni bartaraf qilish yoki tergov qilish bo'yicha tadbirlarni amalga oshirishda huquqni muhofaza qiluvchi vakolatli organlar vakillariga ko'mak beradi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi o'z vakolatlari doirasida vazir buyruqlari va topshiriqlariga asosan boshqa vazifa va funksiyalarni ham amalga oshirishi mumkin.

3-bob. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limining huquq va majburiyatları.

6. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi o'ziga yuklatilgan vazifalar va funksiyalarni bajarish uchun quyidagi huquqlarga ega:

Vazirlik tizimidagi xodimlardan ularning vakolatiga kiruvchi masalalar yuzasidan tahliliy materiallarni, xulosalar, birlamchi va boshqa tasdiqlovchi hujatlarni, statistik va boshqa ma'lumotlarni so'rash, talab qilish va olish;

xizmat majburiyatlarini bajarish doirasida Vazirlik tizimi xodimlaridan zarur yordam so'rash va olish;

tizim tashkilotlari rahbarlariga tizimidagi korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha ko'rib chiqilishi majburiy bo'lgan takliflar kiritish;

tekshiruvlar o'tkazish, jismoniy va yuridik shaxslarning korrupsiyaviy holatlar yuzasidan qilgan murojaatlarini o'rganishda barcha tizim va tasarrufiy tashkilotlarga moneliksiz kirib-chiqish, hujjatlarni talab qilish, Vazirlik tizimi xodimlaridan yozma tushuntirishlar olish, jinoyat alomatlari aniqlangan hollarda tegishli huquqni muhofaza qiluvchi organlarga xabar berish;

o'z faoliyati va vakolatlari doirasida tizim tashkilotlari rahbarlariga yozma tavsiyalar berish;

tizim tashkilotlarining egallab turgan lavozimidan qat'iy nazar barcha xodimlari o'z xizmat vazifalarini bajarmaganligi yoki yetarli darajada bajarmaganligi, Vazirlik tizimining korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati, xodimlarining odob-axloq qoidalarini buzganliklari, shuningdek, huquqqa xilof harakat yoki harakatsizlik, xizmat majburiyatlarini bajarishda yuklatilgan vakolatlardan bosh tortganligi fakti yuzasidan vazirga ma'lumotnomalar kiritish;

barcha tizim tashkilotlarining korrupsiyaga oid majlislarida kuzatuvchi sifatida ishtirok etish, uning natijalarini belgilangan reglament va Vazirlik tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi talablariga muvofiqligi haqida fikr bildirish;

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

7. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi xodimlari korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida komplaens-funksiyalarni amalga oshiruvchi xodimlarga mo'ljallangan o'qishlarda ta'lim olishlari lozim.

8. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi faoliyatining natijadorligi va samaradorligi hamda tizim tashkilotlari korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining samaradorligining maqsadli ko'rsatkichlariga erishish natijalariga asosan baholanadi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi faoliyatining maqsadli ko'rsatkichlari bo'lim boshlig'i tomonidan ishlab chiqiladi va vazir tomonidan tasdiqlanadi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi faoliyati samaradorligining maqsadli ko'rsatkichlariga erishish ustidan nazorat vazir tomonidan amalga oshiriladi.

4-bob. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi faoliyatini tashkil qilish.

9. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limiga vazir tomonidan tayinlanadigan bo'lim boshlig'i rahbarlik qiladi. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi faoliyati mustaqilligini ta'minlash maqsadida bo'lim boshlig'i o'z faoliyatida bevosa vazirga va bo'lim xodimlari bo'lim boshlig'iga bo'ysunadi.

10. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi Vazirlikka idoraviy mansub bo'linmalar rahbarlariga korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha amalga oshirilayotgan tadbirlar hamda ular faoliyatiga aloqadorlikda yuklatilgan vazifalarning amalga oshirilishi holati va natijalari to'g'risidagi ma'lumotlarni yetkazadi.

11. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi xodimlari o'ziga yuklatilgan vazifalarni vazir tomonidan tasdiqlanadigan ish taqsimotiga muvofiq amalga oshiradi.

12. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi xodimlari o‘z xizmat vazifalarini tarkibiy bo‘linmalari bilan ochiqlik, umumiyligi natijaga qaratilganlik, tavsiyalarning o‘z vaqtida va to‘liqligi tamoyillariga tayangan holda tarkibiy tuzilmalari bilan o‘zaro hamkorlikda amalga oshiradi.

13. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi xodimlari o‘z faoliyatini vazir tomonidan tasdiqlangan va kelishilgan lavozim yo‘riqnomalariga muvofiq olib boradilar.

14. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi xodimlari o‘z xizmat vazifalarini bajarmaganligi yoki yetarli darajada bajarmaganligi, Vazirlik tizimining korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati, xodimlarning odob-axloq qoidalarini buzganliklari, shuningdek, huquqqa xilof harakat yoki harakatsizlik, xizmat majburiyatlarini bajarishda yuklatilgan vakolatlardan bosh tortganlik uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda intizomiy yoki boshqa javobgarlikka tortiladilar.

5-bob. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi xodimlariga shaxsiy ustama belgilash.

15. Tizimda korrupsion holatlarni oldini olish hamda Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi xodimlarini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash maqsadida Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirining buyrug‘i asosida davlat byudjeti hamda qonunda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan har oylik maoshiga qo‘srimcha ustama to‘lovlarini amalga oshiriladi.

6-bob. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limining hisobdorligi.

16. Bo‘lim Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyati natijalari yuzasidan choraklik hisobotlar (tegishlicha 10-aprel, 10-iyul va 10-oktabrga qadar) hamda hisobot yilidan keyingi yilning 10-yanvariga qadar yillik hisobotlarni Vazirga taqdim etadi, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining “E-Anticor.uz” platformasiga joylashtirib boriladi.

7-bob. Yakunlovchi qoidalar

17. Ushbu Nizom talablarining buzilishida aybdor bo‘lgan shaxslar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradilar.

O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirining 2024- yil
“5 ” aprel 53- son buyrug‘iga 2-ilova

**O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik
vazirligida monopoliyaga qarshi komplaens tizimini joriy
etish va uning ishlash tartibi to‘g‘risida**

NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi (keyingi o‘rinlarda – Bandlik vazirligi) da monopoliyaga qarshi komplaens tizimini joriy etish, uning faoliyat yuritish va monitoring qilish tartibini belgilaydi.

2. Mazkur Nizomda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

monopoliyaga qarshi kurashish organi — O‘zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasi va uning hududiy boshqarmalari;

monopoliyaga qarshi komplaens — faoliyatning raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlariga muvofiqligini ta’minlash, huquqbazarliklar xavfini aniqlash va ularning oldini olishga qaratilgan ichki tashkiliy chora-tadbirlar va taomillar tizimi;

monopoliyaga qarshi komplaens to‘g‘risidagi hisobot — raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlariga amal qilinishini tashkil etish haqidagi axborotni o‘z ichiga oladigan hujjat;

vakolatli shaxs (bo‘linma) — vakolatli shaxs yoki bo‘lim (boshqarma) nomi yoziladi;

savdolar — tovar va xizmatlarni xarid qilish va sotish bilan bog‘liq bo‘lgan taomillar, shu jumladan, elektron savdo taomillari.

3. Quyidagilar monopoliyaga qarshi komplaens tizimining asosiy vazifalari hisoblanadi:

raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining ehtimoliy buzilish xavflarini aniqlash va baholash hamda uni boshqarish;

Bandlik vazirligida raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablariga muvofiqligini ta’minlash va monitoring qilish;

Bandlik vazirligining faoliyatida raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablari buzilishining hamda rahbarlar tomonidan o‘z vazifalarini bajarish jarayonida raqobatga zid xatti-harakatlar amalga oshirilishining oldini olish;

Bandlik vazirligida monopoliyaga qarshi komplaens tizimining ishlash samaradorligini baholash va ta’minlash;

Bandlik vazirligi xodimlarida raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablari buzilishining oldini olish va muntazam ravishda ushbu yo‘nalish bo‘yicha ularning

malakasini oshirish yuzasidan o‘qitish yo‘li bilan raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlariga doir fikrlarini rivojlantirish.

2-bob. Monopoliyaga qarshi komplaens tizimini tashkil etish.

4. Vakolatli shaxs (bo‘linma) quyidagilarni amalga oshiradi:
 raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablari buzilishini monitoring qilish;
 faoliyatga tegishli materiallarni tahlil qilish (shu jumladan, raqobatni va (yoki) iste’molchilarning huquq va manfaatlarini cheklaydigan normalarni aniqlashga qaratilgan ichki hujjatlarni xatlovdan o‘tkazish), aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etishga yo‘naltirilgan choralarni ishlab chiqish;
- raqobat cheklovlarini keltirib chiqarishi mumkin bo‘lgan omillarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish;
- monopoliyaga qarshi komplaens tizimining faoliyat yuritishi bilan bog‘liq masalalar bo‘yicha boshqa tuzilmaviy bo‘linmalar bilan o‘zaro aloqalarni muvofiqlashtirish;
- raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablari buzilish bilan bog‘liq ichki o‘rganish ishlarini tashkil etish;
- monopoliyaga qarshi kurashish organi bilan raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablari buzilishi bo‘yicha o‘zaro axborot almashish;
- raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish xavflarini kamaytirish maqsadida bir yilga mo‘ljallangan “Yo‘l xaritasi”ni ishlab chiqish va amalga oshirilishini ta’minlash;
- raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari o‘zgarishlarni monitoring qilish, shuningdek, idoraviy hujjatlarga tegishli o‘zgartirishlar kiritish yuzasidan takliflar kiritish;
- raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish xavflarini aniqlash, xavflar bilan bog‘liq holatlar hisobini yuritish va yuzaga kelish ehtimolini belgilash;
- Bandlik vazirligining faoliyatida raqobat cheklovlarini keltirib chiqarishi mumkin bo‘lgan manfaatlar to‘qnashuvini aniqlash, ularni bartaraf etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish;
- Bandlik vazirligi xodimlariga raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablariga amal qilish bilan bog‘liq masalalar bo‘yicha maslahatlar berish;
- monopoliyaga qarshi komplaens masalalari bo‘yicha muntazam ravishda treninglar o‘tkazish;
- Bandlik vazirligi tomonidan qabul qilinadigan hujjatlarning loyihamalarini o‘rganish va raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilishini keltirib chiqarishi mumkin bo‘lgan normalarni aniqlangan taqdirda, bu haqda rahbarni xabardor qilish;
- Bandlik vazirligining Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Toshkent shahar va hududiy bosh boshqarmlar hamda tasarrufiy tashkilotlarda monopoliyaga qarshi komplaens tizimining joriy etilishi va samarali faoliyat ko‘rsatishini tashkil etish;
- har yili birinchi fevralga qadar monopoliyaga qarshi komplaens haqidagi hisobotni rahbariyatga tasdiqlash uchun taqdim etish.

Vakolatli shaxs (bo‘linma) bevosita rahbarga bo‘ysunadi va hisobdor bo‘ladi.

3-bob. Raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilishini aniqlash.

5. Bandlik vazirligida raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish xavflarini aniqlash maqsadida vakolatli shaxs (bo‘linma) tomonidan quyidagilar amalga oshiriladi:

raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilishiga yoki bozorda raqobatni cheklashga olib keladigan normalar va qoidalarni aniqlash maqsadida normativ-huquqiy hujjatlarni o‘rganish;

joriy etiladigan yangi cheklovlardan ruxsat berish tartib-taomillarining yangi turlari, litsenziyalarni, shuningdek, ruxsat berish xususiyatiga ega hujjatlarni yoki litsenziyalarni olish uchun qo‘srimcha talablar yoki shartlarni hamda texnik tartibga solish talablarining joriy etilishini o‘rganish;

tender va birja savdolariga qo‘yiladigan monopoliyaga qarshi talablarga amal qilinishini tahlil qilish;

davlat xaridlarining raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablariga muvofiqligini o‘rganish;

aniqlangan raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablarini buzish holatlarini tahlil qilish;

raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlarini qo‘llash amaliyotini monitoring va tahlil qilish;

raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish xavflarini kamaytirish bo‘yicha ishlab chiqilgan va amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar samaradorligini muntazam ravishda baholash;

vujudga kelish ehtimoli bo‘lgan monopoliyaga qarshi xavflarni tahlil qilish va ularning ro‘yxatini komplaens-xavflar xaritasi ko‘rinishida tuzish;

raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish xavflarini kamaytirish bo‘yicha ishlab chiqilgan va amalga oshirilayotgan tadbirlarning samaradorligini muntazam ravishda baholash.

Bandlik vazirligining faoliyati xususiyatidan kelib chiqqan hamda rahbariyat bilan kelishilgan holda monopoliyaga qarshi komplaens tizimining samarali ishlashiga qaratilgan boshqa chora-tadbirlarni ham amalga oshirish.

6. Raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilishi bo‘yicha aniqlanadigan xavflar vakolatli shaxs (bo‘linma) tomonidan mazkur nizomga ilovaga muvofiq darajalar bo‘yicha taqsimlanadi.

7. Raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish xavflarini tahlil qilish, aniqlash va baholash to‘g‘risidagi axborot monopoliyaga qarshi komplaens haqidagi hisobotga kiritiladi.

4-bob. Monopoliyaga qarshi komplaens tizimining ishlash samaradorligini baholash

8. Bandlik vazirligida monopoliyaga qarshi komplaens tizimining ishlash samaradorligini baholash bo‘ycha asosiy ko‘rsatkichlarni hisoblash monopoliyaga qarshi kurashish organi tomonidan ishlab chiqilgan metodikaga asosan hisoblab boriladi.

9. Vakolatli shaxs (bo‘lim) Bandlik vazirligida monopoliyaga qarshi komplaens tizimining erishilgan asosiy samaradorlik ko‘rsatkichlarini baholaydi (yilda kamida bir marta).

10. Bandlik vazirligi monopoliyaga qarshi komplaens tizimining ishlash samaradorligini baholash bo‘yicha asosiy ko‘rsatkichlarga erishilgani to‘g‘risidagi axborot monopoliyaga qarshi komplaens haqidagi hisobotga kiritiladi.

5-bob. Monopoliyaga qarshi komplaens haqidagi hisobot

11. Monopoliyaga qarshi komplaens haqidagi hisobot quyidagilarni o‘z ichiga qamrab oladi:

raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish xavflari bo‘yicha o‘tkazilgan baholash ishlarining natijalari hamda kamaytirish bo‘yicha choratadbirlarning bajarilishi;

monopoliyaga qarshi komplaens tizimining asosiy samaradorlik ko‘rsatkichlariga erishilgani haqidagi axborot.

12. Bandlik vazirligi tomonidan tasdiqlangan monopoliyaga qarshi komplaens bo‘yicha hisobot Bandlik vazirligining rasmiy veb-saytida joylashtiriladi va uch ish kuni ichida monopoliyaga qarshi kurashish organiga yuboriladi.

“Monopoliyaga qarshi komplaens tizimini
joriy etish va uning ishlash tartibi

to‘g‘risida”gi Nizomga
ILOVA

**Raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik
hujjatlari talablarining buzilish darajasi
bo‘yicha**

NAMUNAVIY XAVFLAR TASNIFI*

Ehtimollikni baholash (yuz berish ehtimollari)	Oqibatlar darajasi		
	Past	O‘rtacha	Yuqori
Yuqori ehtimollik			
O‘rtacha ehtimollik			
Past ehtimollik			

* Raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish darajasi bo‘yicha xavflar tasnifi tavsiyaviy ahamiyatga ega bo‘lib, bozor faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlariga qarab o‘zgartirilishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirining 2024- yil “5 ” aprel 53- son buyrug‘iga 3-ilova

Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘lim boshlig‘ining LAVOZIM YO‘RIQNOMASI

1-bob. Umumiy qoidalar.

1.1. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi boshlig‘i lavozimi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi (bundan buyon matnda Vazirlik deb yuritiladi) markaziy apparatining mustaqil tarkibiy bo‘linmasi bo‘lgan rahbarlik lavozimidir.

1.2. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi rahbari (bundan buyon matnda bo‘lim rahbari deb yuritiladi) o‘z faoliyatini vazir tomonidan tasdiqlangan ish rejasi asosida amalga oshiradi.

1.3. Bo‘lim rahbari O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga va qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon, farmoyishi va qarorlariga, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlariga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga, Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirining buyruqlari va Hay‘at qarorlariga hamda boshqa me’yoriy hujjatlarga, shuningdek, mazkur Yo‘riqnomaga amal qilgan holda ish yuritadi.

2-bob. Malakaviy talablar.

2.1. Bo‘lim rahbari lavozimiga oliy, (yurisprudensiya, iqtisodiyot, moliya yo‘nalishlarida) bakalavriat darajasidan kam bo‘lmagan ma’lumotga ega bo‘lgan, davlat organlarida yoki tashkilotlarida kamida uch yillik, shundan, rahbarlik lavozimida kamida bir yillik ish stajiga ega bo‘lgan, davlat tilini bilgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi bo‘lgan shaxslar tayinlanadi.

2.2. Korrupsiyaga oid jinoyatlarni sodir etishda sud tomonidan aybdor deb topilgan hamda og‘ir va o‘ta og‘ir jinoyatlarni sodir etganlik uchun sudlanganlik holati tugallanmagan yoki olib tashlanmagan shaxslar ushbu lavozimga tayinlanishi mumkin emas.

2.3. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi rahbari O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi (bundan buyon matnda Agentlik deb yuritiladi) bilan birgalikda o‘tkaziladigan ochiq tanlov asosida ishga qabul qilinadi.

2.4. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi rahbari vazir tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimidan ozod qilinadi.

2.5. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi rahbarini lavozimidan ozod etish masalasi Agentlik bilan belgilangan tartibda kelishiladi.

3-bob. Bo‘lim rahbarining asosiy vazifalari va funksiyalari.

3.1. Quyidagilar bo‘lim rahbarining asosiy vazifalari hisoblanadi:

3.1.1. Vazirlik markaziy apparati, bosh boshqarma, bo‘lim va tasarrufiy tashkilotlarda korrupsiyaga oid huquqbazarliklarni profilaktika qilish va ularga qarshi kurashish;

3.1.2. Hududiy boshqarmalar va tasarrufiy tashkilotlarda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini samarali ishlashini ta’minlash va nazorat qilish;

3.1.3. korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiruvchi va ishtirok etuvchi davlat organlari va tashkilotlari bilan hamkorlikni olib borish;

3.2. Bo‘lim rahbari o‘ziga yuklatilgan vazifalarga muvofiq quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

3.2.1. korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha vazirlik markaziy apparati, bosh boshqarma, bo‘lim va tasarrufiy tashkilotlarning faoliyatini takomillashtirish sohasida:

a) vazirlik tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishga qaratilgan ichki idoraviy hujjatlar loyihamini ishlab chiqadi;

b) vazirlikning korrupsiyaga qarshi kurashish chora-tadbirlarini ishlab chiqadi va tasdiqlash uchun vazirga kiritadi;

v) vazirlikning faoliyatiga oid normativ-huquqiy hujjatlar va ichki idoraviy hujjatlarda aniqlangan korrupsiyaviy normalarni bartaraf qilish bo‘yicha takliflar ishlab chiqadi;

g) bosh boshqarma, bo‘lim va tasarrufiy tashkilotlar tomonidan ishlab chiqiladigan korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha chora-tadbirlar loyihamini Vazirlik tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati va O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga mosligi, maqbulligi va dolzarbligi nuqtai nazaridan baholaydi va xulosalar beradi;

3.2.2. Vazirlik markaziy apparati, bosh boshqarma, bo‘lim va tasarrufiy tashkilotlarda korrupsiyaga oid huquqbazarliklarni profilaktika qilish va ularga qarshi kurashish sohasida:

a) Vazirlik markaziy apparati, bosh boshqarma, bo‘lim va tasarrufiy tashkilotlarda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholaydi va ularning natijalari bo‘yicha aniqlangan xavf-xatarlarni kamaytirish yuzasidan chora-tadbirlar rejalarini ishlab chiqadi;

b) Vazirlik markaziy apparati, bosh boshqarma, bo‘lim va tasarrufiy tashkilotlar xodimlari tomonidan o‘xshash huquqbazarliklar sodir etilishi ehtimolini baholash maqsadida davlat hokimiyatining boshqa organlarida korrupsiyaviy huquqbazarliklar sodir etilishining holati va yo‘nalishlari haqida ma’lumot to‘playdi;

v) maxsus axborot aloqa kanallari orqali bosh boshqarma, bo‘lim va tasarrufiy tashkilotlar xodimlari tomonidan korrupsiyaviy xavf-xatarlar va huquqbazarliklar haqida kelib tushadigan murojaatlarni tahlil qiladi va o‘rnatilgan tartibda choralar ko‘radi;

g) xizmat tekshiruvlari yakuni bo‘yicha berilgan ma’lumotnomalar va boshqa hujjatlarda korrupsiya faktlariga doir xizmat tekshiruvlari bo‘yicha ma’lumotlarning to‘g‘ri va to‘liq aks ettirib borilishini nazorat qiladi;

d) davlat xaridlarini amalga oshirishda manfaatlar to‘qnashuvini tahlil qilishda va kontragentlarning ishonchlilagini tekshirish jarayonida ishtirok etadi;

y) Vazirlik markaziy apparati, bosh boshqarma, bo‘lim va tasarrufiy tashkilotlar xodimlariga korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo‘yicha tushuntirish va tavsiyalar beradi;

j) Vazirlik markaziy apparati, bosh boshqarma, bo‘lim va tasarrufiy tashkilotlar faoliyatida korrupsiyaviy holatlarni va xavf-xatarlarni aniqlash maqsadida aholi va xodimlar orasida so‘rovlar o‘tkazadi;

z) korrupsiyaga qarshi kurashishga oid talab va normalarning buzilishi masalalari bo‘yicha intizomiy javobgarlikka tortilayotgan shaxslarga jazo choralarining mutanosibligi va yetarlilagini nazorat qiladi;

i) korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish maqsadida vazirlik markaziy apparati, bosh boshqarma, bo‘lim va tasarrufiy tashkilotlarda korrupsiya faktlari yuzasidan o‘tkazilgan xizmat tekshiruvlari natijalari haqidagi ma’lumotlarni tahlil qiladi;

y) har chorakda yoki zaruratga ko‘ra vazirlik markaziy apparati, bosh boshqarma, bo‘lim va tasarrufiy tashkilotlarda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar hamda ulardagi korrupsiyaviy holat haqida vazirga ma’lumot kiritib boradi;

3.2.3. Vazirlik markaziy apparati, bosh boshqarma, bo‘lim va tasarrufiy tashkilotlarda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining samarali ishlashini ta’minlash va nazorat qilish sohasida:

a) korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha davlat dasturlarida Vazirlikka yuklatilgan vazifalar ijrosini monitoring qiladi va nazoratini amalga oshiradi;

b) korrupsiyaga qarshi normalarga oid qismi bo‘yicha mehnat organlari va tasarrufiy tashkilotlar xodimlarining malakasini oshirish bo‘yicha o‘quv rejalarini ishlab chiqishda ishtirok etadi;

v) Vazirlik tizimi xodimlari va fuqarolar o‘rtasida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha targ‘ibotlarda ishtirok etadi;

g) Vazirlik tizimidagi xodimlar tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati va tartiblariga, shuningdek, korrupsiyaviy xavf-xatarlarni kelib chiqishiga yo‘l qo‘yib beruvchi holatlar bilan bog‘liq odob-axloq qoidalariga rioya qilinishini monitoring va nazorat qiladi;

d) manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish bo‘yicha qabul qilingan qarorlarining xolisligi va maqbulligi nuqtai nazaridan odob-axloq komissiyalari faoliyatini tekshiradi;

y) amalga oshirilgan monitoring, xizmat tekshiruvlari va nazorat tadbirlari natijalari bo‘yicha korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqadi;

3.2.4. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiruvchi va ishtirok etuvchi davlat organlari va tashkilotlari bilan hamkorlikni olib borish sohasida:

a) aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishga doir chora-tadbirlarning ishlab chiqilishida ishtirok etadi;

b) Vazirlik zimmasiga qonun hujjatlari bilan yuklatilgan korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha vazifalarga muvofiq xorijiy davlatlarning vakolatli organlari so'rovlariga javob berishda ishtirok etadi;

v) zaruratga ko'ra Vazirlik markaziy apparati, bosh boshqarma, bo'lim va tasarrufiy tashkilotlarning korrupsiyaga qarshi kurashish chora-tadbirlarini takomillashtirish yuzasidan xorijiy mutaxassislarni jalg qilish bo'yicha takliflar ishlab chiqadi;

g) korrupsiyaviy jinoyatlarni bartaraf qilish yoki tergov qilish bo'yicha tadbirlarni amalga oshirishda huquqni muhofaza qiluvchi vakolatli organlar vakillariga ko'mak beradi.

d) bo'lim rahbari bo'lmaganda Vazirning tegishli buyrug'i bilan uning vazifalari bo'lim bosh mutaxassisiga yuklatilishi mumkin.

e) bo'lim rahbari o'z vakolatlari doirasida vazir buyruqlari va topshiriqlariga asosan boshqa vazifa va funksiyalarni ham amalga oshirishi mumkin.

4-bob. Bo'lim rahbarining huquqlari, majburiyatları va javobgarligi.

4.1. Bo'lim rahbari quyidagi huquqlarga ega:

4.1.1. vazirlikka kelib tushayotgan normativ-huquqiy hujjatlarni tanishish va xizmatda foydalanish uchun olish;

4.1.2. vazirlik, shuningdek, uning tizimiga kiradigan tuzilmalar mansabdor shaxslardan Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limiga yuklangan vazifalar va funksiyalarni bajarish uchun zarur bo'lgan hujjatlar va ma'lumotlarni talab qilish va olish;

4.1.3. rahbariyat tomonidan chaqiriladigan korrupsiyaga qarshi kurashish masalalariga oid yig'ilishlar, kengashlar va majlislarda ishtirok etish;

4.1.4. xizmat majburiyatlarini bajarish doirasida vazirlik tizimi xodimlaridan zarur yordam so'rash va olish;

4.1.5. Vazirlik markaziy apparati, bosh boshqarma, bo'lim va tasarrufiy tashkilotlar rahbarlariga tizimidagi korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha ko'rib chiqilishi majburiy bo'lgan takliflar kiritish;

4.1.6. tekshiruvlar o'tkazish, jismoniy va yuridik shaxslarning korrupsiyaviy holatlar yuzasidan qilgan murojaatlarini o'rganishda barcha Vazirlik markaziy apparati, bosh boshqarma, bo'lim va tasarrufiy tashkilotlarga moneliksiz kirib-chiqish, hujjatlarni talab qilish, vazirlik tizimi xodimlaridan yozma tushuntirishlar olish, jinoyat alomatlari aniqlangan hollarda tegishli huquqni muhofaza qiluvchi organlarga xabar berish;

4.1.7. o'z faoliyati va vakolatlari doirasida Bosh boshqarma, bo'lim va tasarrufiy tashkilotlar rahbarlariga yozma tavsiyalar berish;

4.1.8. Vazirlik markaziy apparati, bosh boshqarma, bo'lim va tasarrufiy tashkilotlarning egallab turgan lavozimidan qat'i nazar barcha xodimlari o'z xizmat vazifalarini bajarmaganligi yoki yetarli darajada bajarmaganligi, vazirlik tizimining korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati, xodimlarining odob-axloq qoidalarini buzganliklari, shuningdek, huquqqa xilof harakat yoki harakatsizlik, xizmat majburiyatlarini bajarishda yuklatilgan vakolatlardan bosh tortganligi fakti yuzasidan vazirga ma'lumotnomalar kiritish;

4.1.9. barcha bosh boshqarma, bo‘lim va tasarrufiy tashkilotlarning korrupsiyaga oid majlislarida kuzatuvchi sifatida ishtirok etish, uning natijalarini belgilangan reglament va vazirlik tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi talablariga muvofiqligi haqida fikr bildirish;

4.2. Bo‘lim rahbari quyidagilarga majbur:

4.2.1. o‘ziga Qonun hujjatlari va ichki hujjatlarda yuklangan funksiyalarni zarur darajada bajarish;

4.2.2. aniqlangan qonun buzilishi (korrupsiya) holatlari to‘g‘risida zudlik bilan vazirga, O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligiga va boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlarga xabar berish;

4.2.3. bo‘lim rahbari qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

5-bob. Yakuniy qoidalar

5. Bo‘lim rahbari o‘z xizmat vazifalarini bajarmaganligi yoki yetarli darajada bajarmaganligi, Vazirlik tizimining korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati, tizim xodimlarining odob-axloq qoidalarini buzganlik, shuningdek, huquqqa xilof harakat yoki harakatsizlik, xizmat majburiyatlarini bajarishda yuklatilgan vakolatlardan bosh tortganlik uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda intizomiy yoki boshqa javobgarlikka tortiladi.

**Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi Korrupsiyaga
qarshi kurashish bo‘limi bosh mutaxassisining
LAVOZIM YO‘RIQNOMASI**

1-bob. Umumiy qoidalar.

1. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi bosh mutaxassisi lavozimi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi (bundan buyon matnda vazirlik deb yuritiladi) markaziy apparatining mustaqil tarkibiy bo‘linmasi bo‘lgan Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limida belgilangan lavozimdir.

2. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi bosh mutaxassisi (bundan buyon matnda bosh mutaxassis deb yuritiladi) o‘z faoliyatini vazir tomonidan tasdiqlangan ish rejasidagi amalga oshiradi.

3. Bosh mutaxassis O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga va qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon, farmoyishi va qarorlariga, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlariga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga, Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirining buyruqlari va Hay’at qarorlariga hamda boshqa me’yoriy hujjatlarga, shuningdek, mazkur Yo‘riqnomaga amal qilgan holda ish yuritadi.

2-bob. Malakaviy talablar.

4. Bosh mutaxassis lavozimiga oliy, (yurisprudensiya, iqtisodiyot, moliya yo‘nalishlarida) bakalavriat darajasidan kam bo‘limgan ma’lumotga ega bo‘lgan, davlat organlarida yoki tashkilotlarida kamida bir yillik ish stajiga ega bo‘lgan, davlat tilini bilgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi bo‘lgan shaxslar tayinlanadi.

5. Korrupsiyaga oid jinoyatlarni sodir etishda sud tomonidan aybdor deb topilgan hamda og‘ir va o‘ta og‘ir jinoyatlarni sodir etganlik uchun sudlanganlik holati tugallanmagan yoki olib tashlanmagan shaxslar ushbu lavozimga tayinlanishi mumkin emas.

6. Bosh mutaxassis Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi boshlig‘i tavsiyasiga ko‘ra vazir tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimidan ozod qilinadi.

3-bob. Bosh mutaxassisning asosiy vazifalari va funksiyalari.

7. Bosh mutaxassis quyidagi asosiy vazifalarni bajaradi:

7.1. Korrupsiyaga oid huquqbazarliklarni profilaktika qilish va ularga qarshi kurashish;

7.2. Vazirlik tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishga qaratilgan ichki idoraviy hujjatlar loyihamalarini ishlab chiqishda ishtirok etish va korrupsiyaviy normalarni bartaraf qilish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish;

7.3. Bosh boshqarma, bo‘lim va tasarrufiy tashkilotlarda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholaydi va ularning natijalari bo‘yicha aniqlangan xavf-xatarlarni kamaytirish yuzasidan chora-tadbirlar rejalarini ishlab chiqishda ishtirok etadi;

7.4. Maxsus axborot aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy xavf-xatarlar va huquqbazarliklar haqida kelib tushadigan murojaatlarni tahlil qiladi va o‘rnatilgan tartibda choralar ko‘rish uchun bevosita rahbariga ma’lumot beradi;

7.5. Xizmat tekshiruvlari yakuni bo'yicha berilgan ma'lumotnomalar va boshqa hujjatlarda korrupsiya faktlariga doir xizmat tekshiruvlari bo'yicha ma'lumotlarning to'g'ri va to'liq aks ettirib borilishini nazorat qiladi;

7.6. Davlat xaridlarini amalga oshirishda manfaatlar to'qnashuvini tahlil qilishda va kontragentlarning ishonchlilagini tekshirish jarayonida ishtirok etadi;

7.7. Bosh boshqarma, bo'lim va tasarrufiy tashkilotlar faoliyatida korrupsiyaviy holatlar va xavf-xatarlarni aniqlash maqsadida aholi va xodimlar orasida so'rovlar o'tkazadi;

7.8. Korrupsiyaga qarshi normalarga oid qismi bo'yicha mehnat organlari va tasarrufiy tashkilotlar xodimlarining malakasini oshirish bo'yicha o'quv rejalarini ishlab chiqishda ishtirok etadi;

7.9. Vazirlik tizimi xodimlari va fuqarolar o'rtasida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha targ'ibotlarda ishtirok etadi;

7.10. Vazirlik tizimidagi xodimlar tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati va tartiblariga, shuningdek, korrupsiyaviy xavf-xatarlarni kelib chiqishiga yo'l qo'yib beruvchi holatlar bilan bog'liq odob-axloq qoidalariga rioya qilinishini monitoring va nazorat qilishda ishtirok etadi;

7.11. Vazirlik va uning tizimida monopoliya ta'siri mavjud faoliyat yo'nalishlarini aniqlash ishlarini tashkil etish;

7.12. Vazirlikda yashirin iqtisodiyot va korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha "monopoliyaga qarshi kurashish komplaens" tizimini joriy etish hamda umumiyligida komplaens-nazorat tizimini takomillashtirish bo'yicha olib boriladigan ishlarda qatnashish;

7.13. Davlat xaridlari hamda markazlashtirilgan mablag'lar hisobiga amalga oshiriladigan investitsiya loyihalarida monopoliyaga qarshi ekspertizadan o'tkazilishida ishtirok etish;

7.14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tartibi to'g'risida qarorida belgilangan Vazirlikning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha olib borayotgan faoliyati samaradorligini puxta tahlil qilish, baholash va aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish uchun taklif va tavsiyalar ishlab chiqadi;

7.15. Ishga qabul qilinuvchi nomzodlar ustidan tekshiruvlar o'tkazadi va ularni tahlil qilib boradi hamda ishga yangi qabul qilingan xodimlarning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha bilim va ko'nikmalarini oshirishini nazorat qiladi;

7.16. Vazir, vazir o'rinnbosari hamda bo'lim boshlig'i tomonidan bosh mutaxassislarning vazifa taqsimotlari belgilanishi mumkin.

7.17. Bosh mutaxassis o'z vakolatlari doirasida bo'lim boshlig'i topshiriqlariga asosan boshqa vazifa va funksiyalarni ham amalga oshirishi mumkin.

4-bob. Bosh mutaxassisning huquqlari, majburiyatları va javobgarligi.

8. Bosh mutaxassis quyidagi huquqlarga ega:

9. vazirlikka kelib tushayotgan normativ-huquqiy hujjatlar bilan tanishish va xizmatda foydalanish uchun olish;

10. vazirlik, shuningdek, uning tizimiga kiradigan tuzilmalar mansabdor shaxslardan Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limiga yuklangan vazifalar va funksiyalarni bajarish uchun zarur bo‘lgan hujjatlar va ma’lumotlarni talab qilish va olish;

11. rahbariyat tomonidan chaqiriladigan korrupsiyaga qarshi kurashish masalalariga oid yig‘ilishlar, kengashlar va majlislarda ishtirok etish;

12. xizmat majburiyatlarini bajarish doirasida Vazirlik tizimi xodimlaridan zarur yordam so‘rash va olish;

13. rahbariyat topshiriqlariga ko‘ra tekshiruvlar o‘tkazish, jismoniy va yuridik shaxslarning korrupsiyaviy holatlar yuzasidan qilgan murojaatlarini o‘rganishda barcha mehnat organlari va tasarrufiy tashkilotlarga moneliksiz kirib-chiqish, hujjatlarni talab qilish va olish, vazirlik tizimi xodimlaridan yozma tushuntirishlar olish, jinoyat alomatlari aniqlangan hollarda tegishli huquqni muhofaza qiluvchi organlarga xabar berish;

14. o‘z faoliyati va vakolatlari doirasida mehnat organlari va tasarrufiy tashkilotlar rahbarlariga yozma tavsiyalar berish;

15. bosh boshqarma, bo‘lim va tasarrufiy tashkilotlarning egallab turgan lavozimidan qat‘i nazar barcha xodimlari o‘z xizmat vazifalarini bajarmaganligi yoki yetarli darajada bajarmaganligi, vazirlik tizimining korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati, mehnat organlari xodimlarining odob-axloq qoidalarini buzganliklari, shuningdek, huquqqa xilof harakat yoki harakatsizlik, xizmat majburiyatlarini bajarishda yuklatilgan vakolatlardan bosh tortganligi fakti yuzasidan bevosita rahbariga ma’lumotlar berish;

16. barcha bosh boshqarma, bo‘lim va tasarrufiy tashkilotlarning korrupsiyaga oid majlislarida kuzatuvchi sifatida ishtirok etish, uning natijalarini belgilangan reglament va Vazirlik tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi talablariga muvofiqligi haqida fikr bildirish;

17. Bosh mutaxassis quyidagilarga majbur:

18. o‘ziga Qonun hujjatlari va ichki hujjatlarda yuklangan funksiyalarni zarur darajada bajarish;

19. aniqlangan qonun buzilishi (korrupsiya) holatlari to‘g‘risida zudlik bilan bevosita rahbariga xabar berish;

20. Bosh mutaxassis qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

5-bob. Yakuniy qoidalar

21. Bosh mutaxassisi o‘z xizmat vazifalarini bajarmaganligi yoki yetarli darajada bajarmaganligi, vazirlik tizimining korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati, mehnat organlari xodimlarining odob-axloq qoidalarini buzganlik, shuningdek, huquqqa xilof

harakat yoki harakatsizlik, xizmat majburiyatlarini bajarishda yuklatilgan vakolatlardan bosh tortganlik uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda intizomiy yoki boshqa javobgarlikka tortiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni
qisqartirish va bandlik vazirining 2024- yil
“5 ” aprel 53- son buyrug‘iga 4-ilova

O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligining 2023-yil 26-maydagi 91-son buyrug‘i 1-ilovasi va 2-ilovasiga o‘zgartish va qo‘srimchalar kiritish to‘g‘risida.

1. Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirining 2023-yil 26-maydagi 91-son buyrug‘ining 1-ilovasi “O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligining korrupsiyaga qarshi kurashish” Siyosatiga quyidagi mazmundagi o‘zgartish va qo‘srimchalar kiritilsin:

8-band quyidagi mazmundagi tushunchalar bilan to‘ldirilsin:

“kasbiy halollik – mehnat organlarida xizmat o‘tayotgan xodimlarning o‘z kasbiy faoliyatini yuksak axloqiy me’yorlarga riosa qilgan holda, bosim va korrupsiyasiz, qonunchilik ustunligini ta’minalash, davlat manfaatlariga, sodiqlik va vazirlik tizimida o‘rnatalgan qoidalarga itoat etish;

kasbiy halollikni tekshirish – mehnat organlarida xizmat o‘tayotgan xodimlarning o‘z kasbiy faoliyati va xatti-harakatlarida qonunchilik talablari, xizmatni o‘tash qoidalari hamda axloqiy me’yorlarga riosa etishni yashirin vositalar orqali amalga oshirish;

“sirli mijoz” tadbiri – vazirlik, hududiy boshqarmalar va tasarrufiy tashkilotlar tomonidan ko‘rsatilayotgan davlat xizmatlarining sifati va tezligini, shuningdek haqqoniy va ochiq tanlov natijalariga ko‘ra tanlab olingan mustaqil tashkilotlar tomonidan korrupsiyaviy huquqbuzarliklar sodir etilishiga moyilligini aniqlash uchun xizmatlarning haqiqiy oluvchilari sifatida alohida nazorat tadbirlari.

xodimlar attestatsiyasi – mehnat organlarida xizmat o‘tayotgan xodimlarning kasbiy malakasini (tayyorgarligini) tizimli asosda aniqlash jarayoni (usuli).”.

11-bandning “g-z” bandlari “h-i” bandlari deb o‘qilsin.

11 band qo‘yidagi mazmundagi kichik bandlar bilan to‘ldirilsin:

“f) xodimlar tomonidan ularga tegishli mol-mulk va daromadlari to‘g‘risidagi deklaratsiyalar haqqoniyligini tekshirish:

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi Vazirlik tizimida korrupsiyaga qarshi kurashishda xodimlar tomonidan ularga tegishli mol-mulk va daromadlari to‘g‘risidagi har yilgi taqdim etiladigan deklaratsiyalar haqqoniyligini tekshiradi. O‘tkazilgan tekshirishlar natijalari bo‘yicha vazirlik, hududiy boshqarmalar va tasarrufiy tashkilotlarda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish yuzasidan tegishli choralar ko‘riladi.

Vazirlik, hududiy boshqarmalar va tasarrufiy tashkilotlarda xodimlar tomonidan ularga tegishli mol-mulk va daromadlari to‘g‘risidagi har yilgi taqdim etiladigan deklaratsiyalar haqqoniyligini tekshirilishi quyidagi tartib-taomillari amalga oshiriladi:

xodimlar tomonidan ularga tegishli mol-mulk va daromadlari to‘g‘risidagi har yilgi taqdim etiladigan deklaratsiyalar vaqtida, to‘g‘ri va asosli to‘ldirilganligini tekshirish;

xodimlar asosiy ishdan tashqari boshqa haq to‘lanadigan ishlar bilan shug‘ullanmasligini hamda faoliyatlarida manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘yilmaganligini tekshirish;

xodimlarning chet elda mol-mulki, manfaatlari, xorijiy banklar va moliyaviy tashkilotlarda hisob raqamlari va mavjud emasligi, chet elda daromadlar olinmasligini tekshirish;

xodimlarning mol-mulki oshishi daromadlariga to‘g‘ri kelishi va shuning asoslari mavjudligini tekshirish

g) vazirlikning Korrupsiyaga qarshi kurashish Siyosatning samaradorligini baholash:

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi Vazirlik tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish Siyosatning samaradorligini baholaydi. O‘tkazilgan baholash natijalari bo‘yicha vazirlik, hududiy boshqarmalar va tasarrufiy tashkilotlarda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish yuzasidan tegishli choralar ko‘riladi.

Vazirlik, hududiy boshqarmalar va tasarrufiy tashkilotlarda korrupsiyaga qarshi kurashish Siyosatning samaradorligini quyidagi ko‘rsatgichlar asosida baholanadi:

- vazirlik tizimida korrupsiyaviy huquqbazarliklar soni markaziy apparat va hududlar darajasida kamayishi;

- vazirlik rahbariyatiga fuqarolardan kelib tushgan shikoyat va murojaatlarning umumiyligi sonidan aniqlangan korrupsiyaga oid faktlarning ulushi;

- korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo‘yicha o‘tkazilgan tadbirlar soni oshishi;

- vazirlik xodimlari tomonidan manfaatlar to‘qnashuvi, daromadlar, mol-mulk va mulkiy xarakterdagi majburiyatlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni taqdim etgan hududdagi xodimlarning monitoringdan o‘tkazilganlik ulushi;

- vazirlik tizimida davlat xaridlarini amalga oshirish sohasida qonun buzilishlari to‘g‘risidagi shikoyatlarning umumiyligi sonidan asosli shikoyatlarning ulushi;

- vazirlik tizimida qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarning umumiyligi sonidan korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o‘tgan normativ-huquqiy hujjatlari loyihalari ulushi;

- korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o‘tkazilgan hududiy normativ-huquqiy hujjatlarda (loyihalarda) aniqlangan korrupsiya omillaridan bartaraf etilgan miqdori ulushi;

- vazirlikda davlat xizmatlarini elektron shaklda ko‘rsatilishining ko‘rsatkichi bilan ko‘rsatilgan umumiy xizmatlar sonidagi ulushi;
- korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish bo‘yicha o‘qitilgan va malakasi oshirilgan xodimlarning soni;
- xodimlar tomonidan ularga tegishli mol-mulk va daromadlari to‘g‘risidagi har yilgi taqdim etiladigan deklaratsiyalar vaqtida, to‘g‘ri va asosli to‘ldirilganligi;
- markaziy apparat, hududlardagi korrupsiyaga qarshi kurashishga vakolatli organlar saytlarida korrupsiyaga qarshi kurash dasturi va uning bajarilishi to‘g‘risidagi hisobotning joylashtirilishi.”.

11-bandning “h”kichik bandi qo‘yidagi mazmunda tahrir etilsin:

“h) huquqbuzarliklarga nisbatan munosabat bildirish va aybdor shaxslarni javobgarlikka tortish:

Korrupsiyaga qarshi kurashish Siyosatiga amal qilish va Vazirlik tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish chora-tadbirlariga rioya qilish har bir xodim uchun o‘z xizmat majburiyatlarining bajarilishi doirasida majburiydir. Xodimlar belgilangan talab va tartib-taomillarning buzganligi uchun shaxsan javobgar hisoblanadilar.

Bundan tashqari, bevosita rahbarlar o‘z bo‘ysunuvidagi xodimlar tomonidan korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etilganligi uchun shaxsan javobgar hisoblanadilar;

korrupsiyaga qarshi kurashishga — oid belgilangan talablar va tamoyillarni buzgan vazirlik, hududiy boshqarmalar va tasarrufiy tashkilotlar xodimlari O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi belgilangan tartibda va asoslarda intizomiy, ma’muriy yoki jinoiy javobgarlikka tortiladilar;

xodimlar ularni korrupsiya bilan bog‘liq huquqbuzarlikni sodir etishga undovchi shaxslarning har qanday murojaatlari to‘g‘risida, shuningdek, boshqa xodimlar tomonidan sodir etilgan korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqida o‘ziga ma’lum bo‘lgan har qanday faktlar haqida to‘g‘ridan-to‘g‘ri Vazirlikning Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limiga xabar berishlari shart;

korrupsiyaga mutlaqo toqatsizlik tamoyilini hisobga olgan holda, Vazirlik tizimida vazirlik, hududiy boshqarmalar va tasarrufiy tashkilotlar xodimlarining korrupsiyaga oid huquqbuzarlik sodir etishlari bilan bog‘liq har qanday asosli shubha bo‘yicha xizmat tekshiruvlari O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga muvofiq va ichki hujjatlarda belgilangan tartibda o‘tkaziladi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi qonun hujjatlari normalarini va (yoki) mazkur Korrupsiyaga qarshi kurashish Siyosati va vazirlik, hududiy boshqarmalar va tasarrufiy tashkilotlarning boshqa ichki hujjatlarida belgilangan korrupsiyaga qarshi talab va tartib-taomillarni buzgan xodimlar, ularning lavozimi, xizmat muddati va boshqa omillardan qat’iy nazar O‘zbekiston Respublikasi

qonunchiligidagi hamda vazirlik, hududiy boshqarmalar va tasarrufiy tashkilotlarning ichki hujjatlarida nazarda tutilgan doirada va asoslarda javobgarlikka tortiladilar;

korrupsiyaga oid huquqbazarlik aniqlangan taqdirda vazirlik, hududiy boshqarmalar va tasarrufiy tashkilotlar, ularning sodir etilish sabablari va shart-sharoitlarini tahlil qiladilar va doimiy asosda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtiradilar;

vazirlik, hududiy boshqarmalar va tasarrufiy tashkilotlar korrupsiyaga oid huquqbazarliklarni aniqlash va tekshirish uchun boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlar va davlat organlari bilan hamkorlik qiladilar.”.

6 paragrafda:

Nomi qo‘yidagi tahrirda bayon etilsin:

“§ 6. Kasbiy halollikni tekshirish va “Sirli mijoz” tadbiri.”.

22-bandи oluvchilari sifatida so‘zlaridan keyin “kasbiy halollikni tekshirish” va “sirli mijoz” kabi” so‘zları bilan to‘ldirilsin.

23-bandи tashkilotlar o‘tkazilgan so‘zlaridan keyin “kasbiy halollikni tekshirish” so‘zları bilan to‘ldirilsin.

Ilova

Vazirlik darajasida qabul qilingan Korrupsiyaga qarshi siyosati samaradorligining maqsadli ko‘rsatkichlari

Vazirlik darajasida qabul qilingan Korrupsiyaga qarshi siyosati samaradorligining maqsadli ko‘rsatkichlari			
№	Maqsadli ko‘rsatkichlari	2023	2024
	Vazirlik tizimida korrupsiyaviy huquqbazarliklar sonining markaziy apparat va hududlar darajasida kamayishi (%);		
	Vazirlik rahbariyatiga fuqarolardan kelib tushgan shikoyat va murojaatlarning umumiy sonidan aniqlangan korrupsiyaga oid faktlarning ulushi (%);		
	Korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo‘yicha o‘tkazilgan tadbirlar soni oshishi (o‘tgan yil bilan solishtirish %);		
	Vazirlik xodimlari tomonidan manfaatlar to‘qnashuvi, daromadlar, mol-mulk va mulkiy xarakterdagi majburiyatlar to‘g‘risidagi ma’lumotharni taqdim etgan hududdagi xodimlarning monitoringdan o‘tkazilganlik ulushi (%);		

	Vazirlik tizimida davlat xaridlarini amalga oshirish sohasida qonun buzilishlari to‘g‘risidagi shikoyatlarning umumiy sonidan asosli shikoyatlarning ulushi (%);		
	Vazirlik tizimida qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarning umumiy sonidan korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o‘tgan normativ-huquqiy hujjatlari loyihalari ulushi (%);		
	Korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o‘tkazilgan hududiy normativ-huquqiy hujjatlarda (loyihalarda) aniqlangan korrupsiya omillaridan bartaraf etilgan miqdori ulushi (%);		
	Vazirlikda davlat xizmatlarini elektron shaklda ko‘rsatilishining ko‘rsatkichi bilan ko‘rsatilgan umumiy xizmatlar sonidagi ulushi (%);		
	Korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish bo‘yicha o‘qitilgan va malakasi oshirilgan xodimlarning soni (o‘tgan yil bilan solishtirish) (%);		
	Xodimlar tomonidan xodimlar tomonidan ularga tegishli mol-mulk va daromadlari to‘g‘risidagi har yilgi taqdim etiladigan deklaratsiyalar vaqtida, to‘g‘ri va asosli to‘ldirilganligi;		
	Markaziy apparat, hududlardagi korrupsiyaga qarshi kurashishga vakolatli organlar saytlarida korrupsiyaga qarshi kurash dasturi va uning bajarilishi to‘g‘risidagi hisobotning joylashtirilishi.		

2. Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirining 2023-yil 26-maydagi 91-son buyrug‘ining 2-ilovasi “Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi va uning tizimidagi boshqarmalar (tashkilotlar) xodimi tomonidan xizmat safarları, xalqaro va boshqa rasmiy tadbirlar munosabati bilan olinishi mumkin bo‘lgan sovg‘a qiymati, shuningdek uni tasarruf etish tartibi to‘g‘risida” nizomiga quyidagi mazmundagi o‘zgartish va qo‘srimchalar kiritilsin:

Nizomda:

Nomi qo‘yidagi tahrirda bayon etilsin:

“Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi va uning tizimidagi boshqarmalar (tashkilotlar) xodimi tomonidan xizmatni o‘tash, xizmat safarları, xalqaro va boshqa rasmiy tadbirlar munosabati bilan olinishi mumkin bo‘lgan sovg‘a qiymati, shuningdek, uni tasarruf etish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomning xodimlari tomonidan so‘zlaridan keyin “xizmatni o‘tash” so‘zleri bilan to‘ldirilsin.

1-bandni tashkilotlar xodimi so‘zlaridan keyin “xizmatni o‘tash” so‘zleri bilan to‘ldirilsin.

1-bandning ikkinchi xat boshisi quyidagi mazmunda bayon etilsin “Mehnat organlarida xizmatni o‘tash, O‘zbekiston Respublikasi hududida o‘tkaziladigan xalqaro va boshqa rasmiy tadbirlar bilan bog‘liq bo‘lmagan xizmat safarları munosabati bilan

Vazirlik, hududiy boshqarmalar va tasarrufiy tashkilotlar xodimining sovg‘a olishi ta’qiqlanadi.”.

2-band quyidagi mazmundagi tushunchalar bilan to‘ldirilsin:

“beg‘araz ko‘rsatilgan xizmat — mehnat organlari xodimlariga xizmatni o‘tash, xalqaro va boshqa rasmiy tadbirlar munosabati bilan jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan bepul taqdim etilgan, moddiy qimmatga ega bo‘lmasligi ko‘rsatilgan xizmat;

xizmatni o‘tash — mehnat organi xodimining vazirlik, hududiy boshqarmalar va tasarrufiy tashkilotlarda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, qonunchilik aktlari asosida xizmat vazifalarini bajarish hisoblanadi. Xizmatni o‘tash quyidagi tartiblarni o‘z ichiga oladi: xizmatga qabul qilish, unvonlar berish va ulardan mahrum etish, lavozimga tayinlash, lavozimdan ozod etish va rotatsiya, xodimlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, attestatsiya o‘tkazish, ta’tillar berish, huquqiy va ijtimoiy himoya qilish, xizmat o‘tash tartibini ta’minalash, xizmat muddatlarini uzaytirish, xizmatdan bo‘shatish va xizmatga tiklash;

sovg‘a yoki xizmat qiymati — xodimlarga sovg‘a yoki xizmat ko‘rsatish ko‘rinishida taqdim etilgan, moddiy qimmatga ega bo‘lgan mol-mulk yoki beg‘araz ko‘rsatilgan xizmat qiymati tushuniladi. Vazirlik, hududiy boshqarmalar va tasarrufiy tashkilotlar xodimlariga bir marta bazaviy hisoblash miqdorining 4 (to‘rt) baravaridan oshadigan va yil davomida 10 (o‘n) baravaridan oshadigan har qanday sovg‘alarni qabul qilinishi ta’qiqlanadi.”.

2-band mehmono‘stlik belgisi, sovg‘a beruvchi va sovg‘alar reyestri tushunchalariga “xizmatni o‘tash” so‘zlarini bilan to‘ldirilsin.

2-bandi sovg‘a tushunchasi quyidagi mazmunda bayon etilsin:

“sovg‘a — vazirlik, hududiy boshqarmalar va tasarrufiy tashkilotlar xodimiga xizmatni o‘tash, xalqaro va boshqa rasmiy tadbirlar munosabati bilan jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan bepul taqdim etilgan, moddiy qimmatga ega bo‘lgan mol-mulk yoki beg‘araz ko‘rsatilgan xizmat hisoblanadi.”.

5, 6, 18-bandlaridagi tashkilotlar xodimi so‘zlaridan keyin “xizmatni o‘tash” so‘zlarini bilan to‘ldirilsin.

2-bobda:

Nomi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“2-bob. Xizmatni o‘tash, xalqaro va boshqa rasmiy tadbirlar munosabati bilan taqdim etilgan sovg‘ani qabul qilish talablari.”.

8-band xodimlari tomonidan so‘zlaridan keyin “xizmatni o‘tash” so‘zlarini bilan to‘ldirilsin.

O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirining 2024- yil
“5 ” aprel 53- son buyrug‘iga 5-ilova

O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligida raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish xavflarini kamaytirish bo‘yicha 2024-yilga mo‘ljallangan

“YO‘L XARITASI”

T/r	Amalga oshiriladigan chora-tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi va bosqichlari	Muddat	Mas’ul ijrochilar
1.	Raqobat qonunchiliga kiritilayotgan o‘zgarishlarni o‘rganib borish, shuningdek, qonunchilikka kiritilgan o‘zgartirishlardan kelib chiqib, idoraviy hujjatlarni muvofiqlashtirish yuzasidan rahbariyatga takliflar kiritish.	<p>Tizimli ravishda raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlariaga kiritilayotgan o‘zgarishlarni o‘rganib borish.</p> <p>Vazirlikda raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablari buzilishi mumkin bo‘lgan sohalarni tahlil qilish.</p>	Har chorakda	Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi (D.Xasanov), Ichki audit boshqarmasi (F.Azizov), Yuridik ta’minlash bo‘limi (A.Abdukarimov) Hududiy bosh boshqarmalar va tasarrufiy tashkilotlar
2.	Vazirlik xodimlari orasida “Monopoliyaga qarshi qonunchilik va unga amal qilish” mavzusida seminarlar va muloqotlar o‘tkazish.	<p>Vazirlik xodimlari orasida raqobat qonunchiligi va uning buzilish ehtimollari hamda unga kiritilayotgan o‘zgarishlar, yangiliklar to‘g‘risida seminar-trening mashg‘ulotlarini o‘tkazish.</p> <p>Faoliyat davomida xodimlarga muntaзам ravishda raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablariga amal qilish</p>	Har chorakda	Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi (D.Xasanov), Ichki audit boshqarmasi (F.Azizov), Hududiy bosh boshqarmalar va tasarrufiy tashkilotlar

		bilan bog'liq masalalar bo'yicha maslahatlar berib borish.		
3.	Raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish ehtimolligini aniqlash va baholash.	<p>Oxirgi 3-yil davomida monopoliyaga qarshi organ tomonidan o'tkazilgan tekshirishlar, aniqlangan qoidabuzarliklar, berilgan taqdimnomalarni o'rghanish.</p> <p>Vazirlik o'z ustun mavqeini suiste'mol qilishi va (yoki) raqobatni cheklashi mumkin bo'lgan holatlarni o'rghanish.</p> <p>O'tkazilgan o'rghanishlar va tahlillar natijasida qonunchilik buzilishi mumkin bo'lgan sohalarni xavflar tasnifi asosida taqsimlash hamda bu yuzasidan monopoliyaga qarshi organga axborot kiritish.</p>	Har chorakda	Ichki audit boshqarmasi (F.Azizov), Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi (D.Xasanov), Hududiy bosh boshqarmalar va tasarrufiy tashkilotlar
4.	Raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish xavflarini aniqlash va ularning oldini olish.	<p>Faoliyatga tegishli materiallarni tahlil qilish (<i>shu jumladan, raqobatni va (yoki) iste'molchilarining huquq va manfaatlarini cheklaydigan normalarni aniqlashga qaratilgan ichki hujjatlarni xatlovdan o'tkazish</i>), aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etishga yo'naltirilgan choralarни ishlab chiqish.</p> <p>Vazirlik tomonidan chiqariladigan hujjatlar (<i>qaror, farmoyish, buyruq, yig'ilish bayonlari va boshqalar</i>) loyihalarini doimiy o'rganib borish. Bunda raqobat to'g'risidagi</p>	Doimiy	Ichki audit boshqarmasi (F.Azizov), Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi (D.Xasanov), Yuridik ta'minlash bo'limi (A.Abdukarimov), Moliya-iqtisod boshqarmasi (O'.Choriyev),

	<p>qonunchilik hujjatlari talablarining buzilishini keltirib chiqarishi mumkin bo‘lgan normalar aniqlangan taqdirda, bu haqda rahbarni xabardor qilish.</p> <p>Raqobat cheklovlarini keltirib chiqarishi mumkin bo‘lgan omillarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish.</p> <p>Vazirlik tomonidan tanlov (tender) va birja savdolari o‘tkazilishida raqobat to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan belgilangan tartibda nazoratni amalga oshirish.</p> <p>Vazirlik (tarkibiy bo‘linmalari) va boshqa yuridik shaxslar o‘rtasida tuziladigan shartnomalarni o‘rganib borish. Bunda:</p> <ul style="list-style-type: none"> - ayrim xo‘jalik yurituvchi subyektlarga ularni tovar yoki moliya bozorida faoliyat ko‘rsatayotgan boshqa xo‘jalik yurituvchi subyektlarga nisbatan afzal holatga qo‘yadigan imtiyozlar, preferensiyalar va yengilliklarni asossiz ravishda berish holatlarining; - ayrim xo‘jalik yurituvchi subyektlarning faoliyati uchun boshqa kamshituvchi yoki imtiyozli shartlar (sharoitlar) belgilash holatlarining; 		<p>Investitsiya loyihalarini muvofiqlashtirish, davlat xaridlari va davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish bo‘limi (B.Dimetov)</p> <p>Hududiy bosh boshqarmalar va tasarrufiy tashkilotlar</p>
--	--	--	---

		<p>- til biriktirish va kartel kelishuvlar sodir etilishining oldini olish.</p> <p>Monopol korxona tomonidan sotiladigan, ular bo'yicha ushbu subyektning ustun mavqeい e'tirof etilgan tovarlarga (ishlarga, xizmatlarga) monopol yuqori va monopol past narxlar o'rnatalishiga olib keladigan yoki olib kelishi mumkin bo'lgan harakatlarni o'rganish.</p>		
5.	Monopoliyaga qarshi komplaens tizimi yuzasidan tayyorlash.	<p>Monopoliyaga qarshi komplaens bo'yicha hisobot tayyorlash:</p> <p>raqobat to'g'risidagi qonun buzilishi xavfini baholash natijalari to'g'risida;</p> <p>raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari buzilishi xavfini kamaytirish yuzasidan ko'rilgan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi to'g'risida;</p> <p>monopoliyaga qarshi komplaensning asosiy ko'rsatkichlariga erishish to'g'risida;</p> <p>Monopoliyaga qarshi komplaens to'g'risidagi hisobotni rasmiy veb-saytga joylashtirish va monopoliyaga qarshi organga yuborish.</p>	Har yili 15 dekabrga qadar	Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi (D.Xasanov), Ichki audit boshqarmasi (F.Azizov), Hududiy bosh boshqarmalar va tasarrufiy tashkilotlar
6.	Monopoliyaga qarshi kurashish organi bilan doimiy	Monopoliyaga qarshi kurashish organi bilan elektron pochta, telegram va rasmiy	Har yili 15-dekabrga qadar	Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi (D.Xasanov),

axborot almashinuvini amalga oshirish.	veb-sayt orqali yangi loyiha va takliflar bo'yicha axborot almashish.		Ichki audit boshqarmasi (F.Azizov), Hududiy bosh boshqarmalar va tasarrufiy tashkilotlar
--	---	--	--